

323  
M 50



НАРАДАР СТРАТЕГИЯСЫ

2017-2021


# MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevning asarları va  
ma'ruzalaridan olingan fikrlari

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI  
IQTIDORLI YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH  
«ULUG'BEK» JAMG'ARMASI

# MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevning asarlari va  
ma'ruzalaridan olingan fikrlar



YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
TOSHKENT - 2019

UO'K 323(575.1)

KBK 66.3

M 50

Hukmingizga havola etilayotgan mazkur kitobda Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalaridagi jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan asosiy fikr-mulohazalari tegishli mavzusi bo'yicha boblarga ajratilib, tartib berilgan.

Kitob rahbarlar, targ'ibotchilar, olim va mutaxassislar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, ularning amaliy faoliyatlarida muhim qo'llanma vazifasini bajaradi degan umiddamiz.

ISBN 978-9943-5530-5-7

© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,  
2019

## KIRISH

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamli, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, el-u yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va tahlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o'rinn tutadigan atoqli davlat va siyosat arboblari keng e'tirof etishmoqda.

Hozirgi vaqtida davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bosqichlarida tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom, qabul qilinayotgan har bir qonun, farmon va qaror, joriy etilayotgan yangilikka ongli munosabat

---

birinchi o'ringa chiqib, ishchanlik muhiti keng qaror topib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Har bir sohada davlat tomonidan belgilab berilgan aniq va samarali tizim va standartlar asosida ish tutish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Masalan, iqtisodiyot sohasini oladigan bo'lsak, xalqaro standartlar asosida ish yuritish nafaqat mahsulotlar sifatini, balki shu mahsulotlarni ishlab chiqaradigan odamlarda kasbiy rivojlanishning uzlusizligiga intilishi, ularda o'z shaxsiy mas'uliyatini doimo chuqur his etib yashashini ham ta'minlab, xodimlarning kundalik faoliyatida barqarorlik, izchillik va sifat omillariga rioya etishni zaruratga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda nafaqat yalpi ko'tarinkilik ruhini ta'minlamoqda, balki odamlarni ochiqlik, oshkorlik, shaffoflik muhitida yashash va ishslashga ham da'vat etmoqda. Har bir sohani ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlantirish zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o'zi oldida fuqarolik mas'uliyatini to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish, vatanparvarlik fazilatlari asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish yo'lini har tomonlama asoslاب beradigan, davlatimizni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqishini ta'minlab beradigan noyob hujjat hisoblanadi.

Ushbu kitobda Harakatlar strategiyasi asosida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun ana shu ulkan ahamiyatga molik o'zgarishlar jarayonining mazmuni, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning purma'no fikrlari orqali yorqin ifoda etilgan.

O'zbekiston Prezidenti jonajon Vatanimizni yana-da obod, xalqimizni baxtli-saodatli qilishdek muqaddas va zalvori keng vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan

---

milliy yuksalishga va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohotlarni amalga oshirishda millatimizning jonkuyar lideri sifatida jonbozlik ko'rsatmoqda. Bu yo'lida nafaqat mamlakatimizning boy yerosti va yerusti zaxiralaridan samarali foydalanish lozimligi, balki shu ulkan imkoniyatlarni samarali ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan inson kapitali, faol tadbirkorlik va do'stona hamkorlik omillarining hal qiluvchi kuch ekanligi Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali mafrosimdag'i ma'rurasida hamda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida alohida qayd etildi. Yurtboshimiz haqli ravishda ta'kidlaganlaridek: «Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir!»

## HUQUQ, INSON HUQUQLARI VA QONUNCHILIK

Fuqarolik jamiyati barpo etish, yurtdoshlari-mizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O'zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi.

(*Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.*  
— Toshkent: «O'zbekiston», 2017.  
1-tom, 44-bet)

\* \* \*

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash — amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir.

(1-tom, 48-bet)

\* \* \*

Odil sudlovning muhim sharti bo'lgan tomonlar tengligi prinsipini to'liq ishlatish uchun advokatura sohasini ham isloh qilish alohida o'rin tutadi. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, advokat eng nufuzli, obro'li va ishonchli kasb egasi hisoblanadi. Milliy qonunchiligidizda ham advokatlarning samarali faoliyat yuritishi uchun barcha yetarli asoslar yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu normalar mutlaqo ishlamayotganini afsus bilan qayd etishimiz lozim.

(1-tom, 48-bet)

\* \* \*

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar partiyasi advokatura institutini rivojlantirish uchun qat'iyat va faollik ko'rsatishi kerak.

(1-tom, 51-bet)

\* \* \*

Bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz – mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbazarlikning oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat.

(1-tom, 52-bet)

\* \* \*

Jinoyat uchun jazo muqarrar, albatta. Lekin o'zimizga bir savol beraylik – fuqarolarimiz jinoyat yo'liga kirib qolmasligi uchun shaxsan har birimiz nima ish qilyapmiz?

Vaziyatni qanday o'rganyapmiz? Ertaga shu jinoyat yana qaytarilmasligi uchun kim nima ish qilyapti? Afsuski, ko'pchiligidan bu masalada faqat tomoshabin bo'lib turibmiz.

(1-tom, 52-bet)

\* \* \*

Odamlar tinch yashashi uchun butun mamlakatimizda jinoyatdan xoli muhit yaratishimiz shart.

Biz Ichki ishlar vazirligi tizimida vakolat va funksiyalarni quyi bo'g'inga tushirib, uni chinakam xalqchil tizimga aylantirishimiz zarur.

Bu borada ilmiy yondashuv va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etamiz.

Har bir jinoyat yoki huquqbazarlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha har qaysi hudud o'z tajribasini yaratishi kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Profilaktik tadbirdarlarni tashkil etishda mahalla imkoniyatlaridan samarali foydalanish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishda faol qatnashayotgan insonlarni har tomonlama rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

(1-tom, 53-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari alohida o'rinn egallaydi. Shu bois jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida zarur choralar ko'rishimiz kerak. Bu borada «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasini izchil davom ettirish eng ustuvor vazifalarimiz qatoriga kiradi.

(1-tom, 58-bet)

\* \* \*

Ma'lumki, biz bugun yurtimizda erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz. Shu borada, avvalo, odamlarimizning halol mehnatiga hurmat bilan qarash, ularning qadr-qimmatini munosib baholashni biz o'zimizning bosh maqsadimiz deb bilamiz.

(1-tom, 96-bet)

\* \* \*

Biz «Adolat – qonun ustuvorligida» degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbazarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz.

(1-tom, 110-bet)

\* \* \*

Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

(1-tom, 114-bet)

\* \* \*

«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz, avvalo, ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.

(1-tom, 141-bet)

\* \* \*

Xalqimiz hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolat tuyg‘usini hayotimizda tom ma’noda qaror toptirish – eng asosiy vazifamizga aylanishi shart.

(1-tom, 193-bet)

\* \* \*

Biz barpo etayotgan huquqiy davlatda, adolatsizlikning hech qanday ko‘rinishiga yo‘l qo‘yilmasligi darkor. Nega deganda, «Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi». Bu chuqur ma’noli so‘zlar bugungi kunda har qachongidan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etayotganini sezish, anglash qiyin emas.

(1-tom, 193-bet)

\* \* \*

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish haqida gapirganda, g‘oyat muhim bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ya’ni, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, xalq bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, sodda qilib aytganda, el-yurt ichiga kirish, uning dardi va tashvishi

---

bilan yashash prokuraturaning eng dolzarb vazifasiga aylanishi zarur.

(1-tom, 199-bet)

\* \* \*

Oldimizda turgan navbatdagi muhim vazifa yaratib berilgan imkoniyat va vakolatlardan to'liq foydalanib, fuqarolarimiz, jamiyat va davlatimiz xavfsizligini hamda Konstitutsiyaviy tuzum himoyasini ta'minlashdan iborat.

(1-tom, 207-bet)

\* \* \*

Biz jinoyatlarga qarshi kurashishda profilaktika ishlarni kuchaytirishimiz, ayniqsa, quyi pog'onadagi ishlarni tubdan o'zgartirishimiz zarur va shart.

(1-tom, 320-bet)

\* \* \*

Hammamizga yaxshi ma'lum, sud jamiyat hayotida qonun ustuvorligi, adolat barqarorligini ta'minlaydigan mustaqil hokimiyat tarmog'idir. Yana bir marta aytaman, mustaqil hokimiyat tarmog'i.

(1-tom, 426-bet)

\* \* \*

Ayni vaqtda, hammamizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlari yangi, yuksak bosqichga ko'tarilmoqda, bunga hammangiz guvohsiz. Binobarin, sud tizimi faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, uning natijadorligini tubdan yaxshilash eng dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunga hayotning o'zi majbur qilmoqda.

(1-tom, 427-bet)

\* \* \*

Jamiyatimizning barcha sohalari qatori sudlar faoliyatini ham chuqur tahlil qilib, yutuqni yutuq, kamchilikni kamchilik deb aytmasak, ishimizga tanqidiy baho bermasak, mazkur tizimda to'planib qolgan muammo va nuqsonlarni bartaraf etish choralarini bugun ko'rmasak, ertaga kech bo'ladi.

(1-tom, 428-bet)

\* \* \*

Sudya, bu – adolat posboni. Shuning uchun ham sudyalar tomonidan qabul qilinayotgan har bir qarorning qonuniy va adolatli bo'lishi haqida chuqur o'yashimiz zarur. Bu borada sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, odil sudlov faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik muqarrarligini so'zsiz ta'minlash lozim.

(1-tom, 429-bet)

\* \* \*

Bilib qo'yinglar, inson taqdirini hal etishda sudyaning ongida faqat adolat, tilida faqat haqiqat dilida esa poklik ustuvor bo'lishi shart.

(1-tom, 437-bet)

\* \* \*

Sudning tarbiyaviy-profilaktik rolini oshirish uchun mahallalarda, ish va xizmat joylarida, ta'lif muassasalarida sayyor sud majlislari o'tkazib, jino-yatchilik va huquqbazarlik holatlarini keng muhokama qilish tajribasini yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, buning ta'siri, albatta, katta bo'ladi. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda, ming bor eshitgandan bir bor ko'rgan afzal. Odamlar qonunni buzgan kimsalar el-yurt oldida qanday ahvolga tushganini o'z ko'zi bilan ko'rsa, shundan to'g'ri xulosa chiqaradi.

(1-tom, 440-bet)

\* \* \*

Bugun zamonning o‘zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o‘zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda. Endi «mudrab yotgan» siyosiy partiyalar uyg‘o-nishi lozim. Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak.

(1-tom, 554-bet)

\* \* \*

To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va oso-yishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

*(Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent:  
«O‘zbekiston», 2018. 2-tom, 4-bet)*

\* \* \*

Ayni paytda, biz Asosiy Qonunimiz talablarini to‘liq amalga oshirish borasida hali oldimizda ulkan vazifalar turganini yaxshi tushunamiz. Ya’ni, xalqimiz hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini amalda ta’minlash bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz kerak.

(2-tom, 6-bet)

\* \* \*

Biz sud-huquq sohasini tubdan isloh qilishga alo-hida ahamiyat berayotganimiz beziz emas. Chunki, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson huquq-

---

larini ta'minlash ushbu islohotlarning amaliy natijasi bilan bevosita bog'liqdir.

(2-tom, 15-bet)

\* \* \*

Hammangizga ayonki, inson huquq va erkinliklarni ta'minlashda ichki ishlar idoralari g'oyat muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan o'tgan davrda ushbu idoralarning faoliyati ham tubdan isloh qilindi. Xalq manfaatlariga xizmat qilish ular faoliyatining asosiy mezoni etib belgilandi.

(2-tom, 22-bet)

\* \* \*

Fuqarolarning fikr, so'z va e'tiqod erkinligiga doir Konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash – rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir.

(2-tom, 36-bet)

\* \* \*

Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yangi avlodlar uchun hayot qomusi, davrning o'zi o'rtaga qo'yadigan dolzarb muammolarni yechish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

(2-tom, 40-bet)

\* \* \*

Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan – fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak.

(2-tom, 94-bet)

\* \* \*

Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalgga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz.

(2-tom, 102-bet)

\* \* \*

Adolat qo'rg'oni qachon paydo bo'ladi? Qachonki sud organlari, sudyalar qonunga, odillik tamoyillariga qat'iy amal qilib, o'z vazifasini halol va vijdonan ado etsa, bunga erishish mumkin.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Sudlar tomonidan qabul qilingan har bir qaror, eng avvalo, adolatli, qonuniy va asosli bo'lishi shart. Shundagina odamlarimizda har qanday holatda ham adolat qaror topishiga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanadi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak.

Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z ichki dasturlari bo'lishi shart.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Keyingi ikki yilda fuqarolarimizning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, turmush sharoitlarini yaxshilash, yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal etishga qaratilgan 90 ta qonun hamda 2 mingdan ziyod farmon va qarorlar qabul qildik.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Muxtasar qilib aytganda, fuqarolarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Afsuski, jamiyatimizda hanuzgacha boqimandalik kayfiyati butunlay barham topgani yo‘q.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan)

\* \* \*

Barchamiz bir narsani tushunib olishimiz kerak: yaxshi yashash uchun, eng avvalo, yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas’uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Bunga erishish esa, faqat va faqat o‘zimizga bog‘liq.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan)

\* \* \*

Ko‘zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo‘lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo‘lda beqiyos kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan)

\* \* \*

Biz xalqimizning farovon hayotini, farzandlarimizning yorug‘ kelajagini ta‘minlash uchun bundan buyon ham bir tan-u bir jon bo‘lib, bor salohiyat, bilim va tajribamizni safarbar etishimiz lozim.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan)

\* \* \*

Jinoyat qonunchiliginini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim.

Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli bu kodekslar bugungi davr talablariga javob bermay qoldi.

Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga, ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda, biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi. Shuning uchun jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam qo'ymoqdamiz.

(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga «Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir» degan hikmatli so'zlarni yozdirgani bezjiz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Adolat, ochiqlik va oshkoraliqni ta'minlash maqsadida sudda ishlarni elektron taqsimlash tizimi amaliyotga kiritildi. Endilikda inson aralashuviziz ishni qaysi sudya ko'rishini elektron dastur belgilaydi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Davlat va jamiyat rivojiga, xalqning adolatga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi keskin kurashish borasida ham aniq choralar ko'rilganini alohida ta'kidlash lozim.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

O'ylaymanki, qonunosti hujjatlarini qabul qilish amaliyotidan voz kechish va to'g'ridan-to'g'ri qo'llanadigan qonunlar qabul qilish vaqt keldi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Zudlik bilan o'z ahamiyatini yo'qotgan qonunlar ro'yxatini shakllantirishimiz, amaldagi mavjud muammolarni chuqur va tanqidiy ravishda o'rganib, eng ilg'or xalqaro tajribalar asosida to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga qo'llanadigan qonunlar qabul qilishimiz lozim.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Har qanday qonun ma'lum huquq berish bilan birga, zimmamizga majburiyat ham yuklaydi. Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqarolar zimmasiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni, ayrim kishilar jazodan qo'rqib qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi.

Shu bois, birinchi navbatda, ahoi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim.

Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan «yaxshi» va «yomon», «mumkin» va «mumkin emas» degan tushunchalar o'rtasidagi farqni o'rgatishimiz, o'zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo'lishimiz kerak.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Biz qanchalik qiyin bo'lmasin, chekka-chekka huddidlarda ham «Jinoyat haqiqati va adolati» tamoyilini albatta joriy etishimiz kerak. Ya'ni, jinoyat so'zsiz fosh etilishi va aybdor jazolanishi shart.

Bu masalaga faqat huquq-tartibot organlarining vazifasi deb qaramasdan, butun jamiyatimiz birlashib, qattiq kurash olib borishi zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Ma'lumki, Asosiy Qonunimizda «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi» to'g'risidagi norma belgilab qo'yilgan. Uning ijrosini amalda ta'minlash maqsadida Ma'muriy islohotlar konsepsiysi qabul qilindi.

Konsepsiaga asosan davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi va maxsus «yo'l xaritasi» bo'yicha 100 dan ortiq ijro hokimiyati organlari faoliyati qayta ko'rib chiqilmoqda.

Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad – ixcham va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruvin tizimini yaratishdan iborat.

(2-tom, 24-bet)

\* \* \*

Davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish lozim.

Davlat boshqaruvin organlari va Vazirlar Mahkamasi o'rtasida o'zaro hamkorlikda ish olib borish bo'yicha prinsip va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

(2-tom, 98-bet)

\* \* \*

Vazirliklar bilan teng maqomda faoliyat olib bora-yotgan, hukumat va parlament bilan bevosita hamkorlik qilayotgan agentliklar, qo'mita, inspeksiya va markazlarni tegishli vazirliklarga bo'ysundirish talab etiladi. Shuni nazarda tutgan holda, Hukumatning vazifa va tuzilmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish lozim. Bunday o'zgarishlar davlat

---

va xo'jalik ishi sohasida deyarli bir xil vazifalarni bajarayotgan yuzdan ortiq boshqaruv organlari sonini tubdan qisqartirish imkonini beradi.

(2-tom, 98-bet)

\* \* \*

Yana bir muhim masala – barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o'rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta'sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish kerak. Bu jarayonda ham raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog'ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko'ra, amalda bir nechta muammoni hal qilib bersangiz odamlar sizlardan rozi bo'ladi.

(2-tom, 95-bet)

## TADBIRKORLIK VA ISHBILARMONLIK

Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi.

(1-tom, 147-bet)

\* \* \*

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

(1-tom, 148-bet)

\* \* \*

Tadbirkor, bu – haqiqiy fidoyi inson. Shaxsan men bunday odamlarni yoki, mayli, ikkita bo'lsa ham ish o'rni yaratgan tadbirkorni boshimga ko'tarishga tay-yorman. Shuning uchun, tadbirkor boy bo'lsa, davlat ham, xalq ham boy bo'ladi degan fikrni qayta-qayta takrorlashdan men charchamayman. Bilib qo'yinglar, bizning bundan boshqa yo'limiz yo'q.

Shu munosabat bilan yana bir bor ta'kidlab ayt-moqchiman: tadbirkorlik yo'liga qarshi chiqish –

---

davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga qarshi chiqishdir.  
(1-tom, 202–203-betlar)

\* \* \*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqimizning farovon turmushini ta'minlashda muhim o'rinn tutayotgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir.

(1-tom, 201-bet)

\* \* \*

Yurtimizda tadbirkorlik sohasida yaratilayotgan qulay sharoitlardan foydalanib, yoshlarni o'z mustaqil ishini ochishga da'vat qilish – bu ham dinimiz buyur-gan yaxshi amallardan biri.

(1-tom, 494-bet)

\* \* \*

Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mah-sulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rirlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz.

(2-tom, 87-bet)

\* \* \*

Tadbirkorlar faoliyatini jadal rivojlantirish jami-yatimiz taraqqiyoti va farovon hayotimizning mustahkam tayanchi, iqtisodiyotimiz barqaror o'shining eng muhim kafolatidir.

(1-tom, 68-bet)

\* \* \*

O'zbekistonda qachon tinchlik bo'ladi? Odamlar oylik olsa. Odamlarga kim oylik beradi? Oddiy til bilan aytganda, ularni kim boqyapti? Tadbirkor. Shunday ekan, mevali shoxga bolta urib nimaga erishish mumkin?

(1-tom, 71-bet)

\* \* \*

Xalq boy bo'lsa, davlat ham albatta boy va qudratli bo'ladi.

(1-tom, 116-bet)

\* \* \*

Tadbirkorni faqat jazolash uchun povestka bilan chaqirish emas, balki unga amaliy yordam berish, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish – prokuratura idoralari uchun asosiy vazifa bo'lishi zarur.

(1-tom, 206-bet)

\* \* \*

Ishonchim komil, mehnatsevar, tadbirkor va uddaburon xalqimiz erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali mehnat qilishga va munosib hayot kechirishga albatta qodir.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Biz bu yil qabul qilgan «Har bir oila – tadbirkor» hamda «Yoshlar – kelajagimiz» dasturlari doirasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga o'z biznesini yo'lga qo'yishi uchun katta imtiyozlar berildi. Kelgusi yilda ham biz ushbu dasturlar ijrosini qat'iy nazoratga olib, har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlanтиra olsak, ularga mablag'lardan to'g'ri foy-

---

dalanishni o'rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo'lamiz.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Buyuk alloma Najmiddin Kubro hazratlari «Muvaffaqiyatni sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko'rdim» deb bejiz aytma-ganlar.

Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar jadal davom ettiriladi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa, mamlakat ham boy bo'ladi.

(Toshkent shahri saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlangan nutqdan.  
«Toshkent ogshomi» gazetasi,  
2016-yil 24-noyabr)

\* \* \*

Turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim.

---

Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarihiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiatи, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va eko-turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## MOLIYA VA IQTISOD

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o'sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish, avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu – bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir.

(1-tom, 72–73-betlar)

\* \* \*

Mamlakatimiz hudud va mintaqalarini zamon talab-lari asosida taraqqiy toptirish uchun biz aniq reja va hisob-kitoblarga ega bo'lishimiz kerak.

(1-tom, 74-bet)

\* \* \*

Xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratib berish maqsadida, eng avvalo, kuchli iqtisodiyotni bar-po etishimiz, mamlakatimizning xalqaro maydonda har tomonlama raqobatbardoshligini ta'minlashimiz zarur.

(2-tom, 27-bet)

\* \* \*

Inson manfaatlarini ta'minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lif va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy

---

sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir.

(1-tom, 121-bet)

\* \* \*

Biz, avvalo, iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlash-tirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish bo'yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak.

(1-tom, 146-bet)

\* \* \*

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarini hal etish – hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

(1-tom, 147-bet)

\* \* \*

Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'p-lab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yemoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

(1-tom, 168-bet)

\* \* \*

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish,

---

jumladan, davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.

(1-tom, 237-bet)

\* \* \*

Hammamiz yaxshi tushunamiz, har qanday islohot va o'zgarishni barqaror iqtisodiyotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Biz o'tgan yil davomida bu borada keng ko'lamli ishlarni boshladik. Lekin milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun oldimizda hali ko'plab vazifalar turibdi.

(2-tom, 112-bet)

\* \* \*

Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. Biz aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirmasdan turib, «yashirin iqtisodiyot»dan to'liq xalos bo'la olmaymiz.

(2-tom, 122-bet)

\* \* \*

Konsepsiya asosida soliq siyosatida muhim o'zgarishlar joriy qilinmoqda. Jumladan, jismoniy shaxslar uchun hozirgacha amal qilib kelgan eng yuqori 22,5 foizli daromad solig'i stavkasi o'rniغا 12 foizli stavka belgilandi, 8 foizli sug'urta badali esa bekor qilindi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Biznes hamjamiyati uchun eng og'ir hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi ilgarigi 25 foiz o'rniiga 12 foiz etib belgilandi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Byudjetdan tashqari pensiya, yo'l va ta'lim bo'yicha maqsadli jamg'armalarga 3,2 foiz miqdoridagi majburiy to'lov bekor qilindi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim:

- ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinalarini ko'paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdarligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyuta ayirboshlashni erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalgalash;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O'zbekiston-2030» dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kамиda 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institatlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Mashhur xitoy faylasufi Sun Szining hikmatli bir gapi bor: «Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-torojlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga uchraydi». Ko'p yillar davomida soliq yukining yuqori bo'lgani mamlakatda «xufiyona iqtisodiyot» ulushining ortib ketishiga sharoit yaratdi.

Mavjud vaziyatni hisobga olib, biz, avvalambor, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini qabul qildik.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo'l-sak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, chala-chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart. Yagona yo'limiz shu. Bu – Asosiy qonunimiz talabi. Boshqa yo'l yo'q. Biz boshlagan islohotlarimizni qat'iy davom ettiramiz va ular, albatta, o'zining ijobiy natijasini beradi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam – o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak.

Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obli-gatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko'lamin Yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur.

Investorlar mamlakatimizda o'zini imkon qadar erkin his qilishlari uchun valyuta bozorini yanada erkinlashtirish talab etiladi.

*(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)*

\* \* \*

2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yuki-ni kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'l-lashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Afsuski, yalpi ichki mahsulotda «yashirin» iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yana-da qulay sharoitlar yaratish «yashirin» iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralar ni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Subvensiyaga qaramlikdan qutulishning yo'li bit-ta. U ham bo'lsa, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirib, byudjet daromadlarini asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko'paytirishdan iboratdir.

(Prezidentlik saylovoldi dasturidan.  
2016-yil 18-noyabr)

\* \* \*

Iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir.

Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'y-moqdamiz.

Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda.

(2-tom, 114-bet)

## IJTIMOY HIMoya

Bugungi kunda mamlakatimizda yuritilayotgan davlat siyosatining asl mohiyati va pirovard maqsadi – xalqimizning dard-u tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlaridan doimo xabardor bo'lib, uning moddiy farovonligini oshirish, munosib turmush darajasi va sifatini ta'minlash, tinch hayotini himoya qilishdir.

(1-tom, 312-bet)

\* \* \*

Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlashdan iborat. Bu – biz yashayotgan bugungi murakkab davrning asosiy talabidir. Takror aytishga to'g'ri keladi – odamlarimiz o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni bugun kutmoqda.

Shu sababli biz o'z faoliyatimizni «Buyuk kela-jagimiz bugundan boshlanadi» degan shior asosida tashkil etishimiz, xalqimizning farovon hayotini ta'minlash uchun bor kuch va salohiyatimizni ishga solishimiz zarur.

(2-tom, 30–31-bet)

\* \* \*

Bizning faoliyatimiz eng muhim Konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart.

Ijtimoiy adolat, bu – siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar tengligidir.

---

Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir.

Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish borasidagi asosiy vazifamiz, bu – adolatli qonunlar qabul qilishdan iborat.

Qisqacha aytganda, qonun adolatli bo'lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi.

(2-tom, 35-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda.

(2-tom, 72-bet)

\* \* \*

O'z-o'zidan ayonki, biz aholi bandligini ta'minlashni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, bu masalaga nafaqat son, balki sifat jihatidan ham alohida ahamiyat berishimiz zarur.

(2-tom, 77-bet)

\* \* \*

Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning munosib hayot kechirishini ta'minlash borasida bugun oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini biz har tomonlama chuqur anglaymiz.

(2-tom, 223-bet)

\* \* \*

Biz bir hayotiy haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Ya'ni, xato qilgan, yo'lidan adashgan odamni «yomon» deb chetga surib qo'ysak, u yomon bo'lib qolaveradi. Yomonni yaxshi qilish, uni do'stga aylan-tirish, bu – faqat sog'lom jamiyatning qo'lidan keladi.

(2-tom, 228–229-bet)

\* \* \*

Strategiya, bu – yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir.

(2-tom, 245-bet)

\* \* \*

Qariyalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'l-lab-quvvatlash bo'yicha tasdiqlangan dasturni amalga oshirish alohida nazoratga olinishi kerak. Har bir imtiyoz va ijtimoiy himoya chorasi o'z egasiga yetib borishi darkor.

(1-tom, 253-bet)

\* \* \*

Barchamizga yaxshi ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdag'i o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz. Bularning barchasi bizning bebahो boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir.

(1-tom, 126-bet)

\* \* \*

Xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash, ularga imtiyozli uylar ajratish bo'yicha yangi tizim joriy etilgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga egadir.

(2-tom, 470-bet)

\* \* \*

Yoshlarni, yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish masalasi ham biz uchun eng muhim va ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda. Bu borada mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida Yoshlar uylarini barpo etish dasturi hayotga izchil joriy etilayotganini ta'kidlash lozim.

(2-tom, 493-bet)

\* \* \*

Yangi yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» das-turlari ijrosi uchun 4 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratish ko'zda tutilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko'rilmasa, ushbu ko'rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin.

Bosh vazir A.Aripov mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yet-kazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish uchun shaxsan mas'ul etib belgilanadi.

Bu borada faqat poytaxt va viloyat markazlari bo'l-gan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e'tibor markazida turishi kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

2019-yil – «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim. Bu borada ishsizlarni kasbga o'qitish, ularga huquqiy va boshqa maslahatlar berish hamda boshqa ijtimoiy yordam usullaridan keng foydalanish kerak.

---

Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur. Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliq va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berish kerak.

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur.

Xabaringiz bor, yaqinda ushbu masala bo'yicha farmon qabul qildik. Unga ko'ra, 2019-yil 1-yanvardan boshlab, ishlaydigan barcha pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanishi belgilandi.

Shuningdek, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda.

Islohotlarning keyingi bosqichida ushbu cheklovlar ham butunlay bekor qilinadi.

Ayni vaqtda, nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qtganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi kerak. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag'ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turini joriy etamiz.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turarjoy bilan ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Kelgusi yilda ham arzon uy-joylar qurish dasturi izchil davom ettiriladi.

Namunaviy uylarning loyihibalarini takomillash-tirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'l-lash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish kerak.

---

Ayni paytda, yurtimizdagi 34 mingdan ortiq ko‘p qavatli uylarning aniq holatini yana bir bor o‘rganib, bu masala bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish zarur.

Hukumat uch oy muddatda ko‘p qavatli uy joy fondini to‘liq xatlovdan o‘tkazishni ta’minlashi kerak.

Dunyodagi yirik megapolislarning bu boradagi tajribasini o‘rgangan holda, renovatsiya dasturini, ya’ni eskirib qolgan ko‘p qavatli uylar o‘rnida eng zamonaviy sharoitga ega bo‘lgan yangi uylar qurish dasturini ishlab chiqish lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Prezident qabulxonalarining ikki yillik ish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, biz yaqin o‘tmishda xalqdan, uning tashvish va muammolaridan ancha uzoqlashib qolgan ekanmiz.

Biz fuqarolar bildirgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olib, davlat boshqaruv tizimini isloh qilishimiz, ilg‘or davlat menejmenti va «aqli» boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o‘tishimiz lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bu siyosatning asosiy maqsadi shundan iboratki, biz har bir fuqaro o‘zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak.

(*Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. 23-bet*)

\* \* \*

Ma'lumki, bu yil davlat hokimiyati tizimida mutlaqo yangi institut – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, joylarda Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Ushbu tuzilmalar barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar bilan hamkorlik qilish, aholining eng dolzarb muammolarini hal etishning samarali tizimiga aylandi.

(2-tom, 8-bet)

\* \* \*

Davlat xizmatlarini bevosita quyi bo'g'inlarda ko'rsatish, mahalliy hokimiyat idoralari uchun moli-yaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bu borada mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim.

(2-tom, 89-bet)

\* \* \*

Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish zarur. Shu munosabat bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'laydigan ko'prik vazifasini bajarishi lozim.

(2-tom, 104-bet)

\* \* \*

Xalqimiz o'z hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni keljakda emas, balki bugun ko'rishni, ulardan bugun bahramand bo'lishni istaydi. Aholimizning ana shunday tabiiy istak va talablarini bajarish barcha rahbar

---

va yetakchilarning asosiy burchi va vazifasiga aylanishi shart.

(2-tom, 226-bet)

\* \* \*

Eng avvalo, odamlarimiz islohotlar samarasini kelajakda emas, balki bugun o'z hayotida his etishlari zarur.

(2-tom, 6-bet)

---

## MADANIYAT, SAN'AT, ADABIYOT, MA'NAVIYAT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Ta'lif va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

(1-tom, 16-bet)

\* \* \*

Albatta, kompyuter, planshet – yaxshi. Nevaralarimiz, bolalarimizga odamning havasi keladi. Bu narsalar – zamon talabi hozir. Lekin madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog'chasida, mакtabda kitob o'qishga o'rgatishdan boshlanadi.

(1-tom, 86-bet)

\* \* \*

Yoshlarimiz o'rtasida huquqiy madaniyat, sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishga qaratilgan ishlarning samarasini oshirishni bugun davrning o'zi talab etmoqda.

(1-tom, 89-bet)

\* \* \*

Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi.

(1-tom, 132-bet)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab puxta o'ylangan tashqi siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda. Uning zamida o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi va madaniyatini, an'ana va qadriyatlari, ezgu orzu-intilish va manfaatlari mujassamdir.

(1-tom, 383-bet)

\* \* \*

Maxtumquli adabiy merosi milliylik chegaralaridan chiqib, jahon so'z san'atining beqiyos durdonalariga, insoniyat tafakkurining bebaho xazinasiga aylandi. Shoир asarlarini o'qib bugungi kunda birgina turkman xalqi emas, balki butun insoniyat o'zining ma'naviy tashnaligini qondirmoqda.

(1-tom, 368-bet)

\* \* \*

Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag'ishlaydi.

(1-tom, 33-bet)

\* \* \*

Adolat va ma'naviyat – o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Ma'naviyat bo'limgan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi.

(1-tom, 432-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlan-tirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari –

---

mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rinnegallaydi deb ishonamiz.

(1-tom, 141-bet)

\* \* \*

Kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan ommaviy axborot vositalari haqida so'z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan oljanob va mas'uliyatlari kasb egalarini tasavvur qilamiz.

(1-tom, 498-bet)

\* \* \*

Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dard-u tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydoniga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz.

(1-tom, 500-bet)

\* \* \*

Zamonaviy milliy jurnalistika maktabini yaratish ko'p jihatdan, avvalo, yuksak ma'naviy-intellektual salohiyatga ega bo'lgan, bugungi kun talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir.

(1-tom, 501-bet)

\* \* \*

El-yurtimizning ezgu orzu-istikclarini ro'yobga chiqarish, bu yo'lida g'ov bo'lib turgan turli to'siqlarni, byurokratizm, loqaydlik, tamagirlilik, korrupsiya kabi salbiy illatlarni dadillik bilan ko'tarib chiqib, ularga qarshi murosasiz jamoatchilik fikrini shakllantirishni

---

o'z kasbi, o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan jurnalistlarni men haqiqiy jurnalist deb hisoblayman.

(1-tom, 501-bet)

\* \* \*

Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida yosh shoir va adiblar, aktyor, rassom va qo'shiqchilar, jurnalistlarning iste'dodini yuzaga chiqarish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish borasida ham qator choratadbirlar amalgalashuviga oshirilmoqda.

(2-tom, 180-bet)

\* \* \*

Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor, bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q.

(2-tom, 181-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi keng ko'lamli islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar jarayonida ijodkor ziyolilarimizning o'rni va hissasi qanday bo'lmoqda?

(2-tom, 181-bet)

\* \* \*

Qo'limizni ko'ksimizga qo'yib xolisona aytaylik: ijodkor ziyolilarimizning bugungi faoliyati jamiyatimizni, eng avvalo, el-yurt taqdiri uchun doimo kuyunib, yonib yashaydigan, bedor qalb egalari bo'lgan sizlarning o'zingizni qoniqtiradimi?

(2-tom, 181-bet)

\* \* \*

Azal-azaldan xalq ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qarashi sizlarga yaxshi ma'lum. Ruscha

---

ibora bilan aytganda, ularga «vlastiteli dum», ya'ni «jamiyat tafakkurining egalari» degan yuksak baho berib kelinishi albatta bejiz emas. Chunki, sizlarga Yaratganning o'zi shunday noyob iste'dod va salohiyat ato etganki, bunday xususiyat, bunday fazilat har kimga ham nasib etmaydi.

(2-tom, 182-bet)

\* \* \*

Adabiyot va san'atning naqadar qudratli kuchga ega ekani haqida sizdek zukko insonlar huzurida so'z yuritishga, ochig'ini aytsam, men biroz tortinaman. Lekin mana shunday buyuk, ilohiy kuchdan biz mam-lakatimiz, el-yurtimiz ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanyapmizmi? Yoki ulug' adibimiz Abdulla Qahhor aytganidek, atomning kuchini o'tin yorishga sarflayapmizmi?

(2-tom, 182-bet)

\* \* \*

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ijodiy uyushmlarning bugungi faoliyatida tadbirbozlik, shunchaki xo'jako'rsinga ishslash, sustkashlik va loqaydlik kayfiyatları tobora yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ijodiy tashkilotlar rahbarlarining aksariyati faqat yuqorida buyruq kutib ishslashga o'rganib qolgani, ularning faoliyatida umumiy maqsad uchun jon kuydirish, tashabbus va tashkilotchilik sezilmayotgani, albatta, achinarli hol.

(2-tom, 184-bet)

\* \* \*

Necha yillardan beri masala qo'yamiz – zamonaviy qahramon obrazini yarataylik deb. Lekin birorta jiddiy natijaga erisha oldikmi?

(2-tom, 188-bet)

\* \* \*

Ayni vaqtida, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi.

(2-tom, 195-bet)

\* \* \*

O'zining noyob iste'dodi va mahoratini xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishlagan, inson qalbining muhandislari bo'lgan ijodkor ziylolilarga doimiy g'amxo'rlik masalasi bizning dasturimizda alohida o'rin egallaydi.

(1-tom, 87-bet)

\* \* \*

Olimlik – Olloh nurini solgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi.

(1-tom, 166-bet)

\* \* \*

Akademik degan yuksak darajaga erishish, bu, albatta, oson emas. Bunday baxt har kimga ham nasib qilavermaydi. Akademiklar millatning faxri, g'ururi, xalqning yuzi desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

(1-tom, 177-bet)

\* \* \*

Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog'larini tashkil etish, ularni zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish choralarini ko'rish zarur. Ushbu bog'lar tarkibida, birinchi navbatda, sport maydonchalar, amfiteatr va kichik sahnalar, kutubxona, «kitob kafe»lari bo'lishi lozim.

---

Bugungi kunda yoshlarimizning bilim va ma'lumot olishining asosiy manbai internet ekani hech kimga sir emas.

Shu sababli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlagan holda, jamoat joylarida bepul Wi-Fi hududlarini tashkil etish choralarini ko'rishimiz kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Men ommaviy axborot vositalari faoliyatini mun-tazam kuzatib boraman. Lekin, afsuski, islohotlar mohiyati, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ijrosi bilan bog'liq muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan gazeta, tele- va radiokanalarda tanqidiy maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar juda kam. Vaholanki, islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari xalq manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylanishi lozim. Buning uchun ulardan shijoat, professional mahorat, xolislik va chuqur tahliliy salohiyat talab etiladi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)

\* \* \*

Bir-ikki marta nomiga tadbir o'tkazish bilan ish bitmaydi. Bu yo'nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma'naviy hayot, g'oyaviy-mafkuraviy ish deb qo'yibdi. Bu bizza g'alla yoki chigit ekish emas, urug'ni tuproqqa tashladik, bo'ldi endi kutamiz deb qarab o'tirsak.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik». «Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

... o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb

---

bilgan insonlar, bu – mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi – ularning barchasi, ayniqsa faol bo‘lishlari lozim.

(«*Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik*».

«*Xalq so‘zi*», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta’sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko‘makchisi va hamdardiga, demokratiya ko‘zgusiga aylanishi zarur. Hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy va xolis baho berish, turli sohalardagi kamchiliklar, dolzarb muammolarni dadil ko‘tarib chiqish ular faoliyatida asosiy mezon bo‘lishi kerak.

(2-tom, 36-bet)

\* \* \*

O‘tgan qisqa davrda bu borada ikkita muhim hujjat – «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmon, «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» qaror qabul qildik. Lekin, shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda tizim faoliyatini qoniqarli baholay olmaymiz. Madaniyat vazirligi mutasaddilarida sustkashlik, o‘zibo‘larchilik, xotirjamlikka berilish kayfiyati davom etmoqda.

(2-tom, 198–199-bet)

\* \* \*

Fursatdan foydalanib, sizlarga, hurmatli madaniyat, san’at va fan arboblariga, murojaat etmoqchiman: o‘zaro do‘stligimizning ana shu shonli an’analari bugun bizlarga suv va havodek juda zarur. Ushbu

noyob va bebahо merosimizni asrab-avaylab, yanda rivojlantirish – xalqlarimiz va kelgusi avlodlarimiz oldidagi muqaddas burchimizdir.

(2-tom, 344-bet)

## INVESTITSIYA

Mamlakatimizga investitsiyalar jalg qilish borasi-dagi ishlarning samaradorligi, bu sohadagi muammolar, to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha tegishli idoralarning mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

(1-tom, 122-123-betlar)

\* \* \*

Ma'lumki, mamlakatimizning chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlash va xorijda respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlarini keng targ'ib qilish orqali uning xalqaro nufuzini yanada oshirish, investitsiyalar jalg qilishni jadallashtirish, turizm sohasini yanada rivojlantirish iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

(1-tom, 160-bet)

\* \* \*

Iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning eng muhim yo'naliшlaridir.

(2-tom, 246-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan faol investitsiya siyosatiga bog'liq. Shu asosda davlatimizning raqobatbardoshligi va, eng asosiysi, aholi farovonligining tubdan oshirilishi, yangi korxona va

---

tarmoqlar, yangi ish o'rnlari yaratilishini, o'ylaymanki, tushuntirib o'tirishning hojati yo'q.

(2-tom, 287-bet)

\* \* \*

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan.

Shu sababli ham investitsiya, bu – iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz.

Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yusak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kerak.

Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalariga biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiylar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim.

Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishi ni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlash-tirishdan voz kechish zarur. Buning uchun ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish kerak. Shuning uchun joylarda – tuman, shahar va viloyat hokimliklarida investitsiyalarni faol jalg etish bo'yicha hokim o'rinnbosarlari lavozimi joriy etildi.

Shu bilan birga, hududiy boshqaruv organlarining byudjet mablag'larini shakllantirish, qo'shimcha zaxi-ralarni yaratish bo'yicha soliq, moliya va iqtisodiyot sohalari organlarining mas'uliyatini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi.

(2-tom, 100-bet)

## INNOVATSIYA

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biron ta sohaning rivojlanishi mumkin emas. Shu ma'noda, zahmatkash, fidoyi olimlarimizni Xudo bergen odamlar desak, xato bo'lmaydi. Ularni boshqalar bilan teng qilish mumkin emas. Bunday insonlar mingtadan, milliontadan bitta tug'iladi. Ular-ni asrab-avaylashimiz, har tomonlama qo'llab-quvvat-lashimiz lozim.

(1-tom, 85-bet)

\* \* \*

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya, bu – kelajak degani. Biz buyuk kela-jagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

(2-tom, 88-bet)

\* \* \*

Shu nuqtayi nazardan, davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya

---

qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim.

(2-tom, 116-bet)

\* \* \*

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

(1-tom, 168-bet)

\* \* \*

«Globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqazishni taqozo etmoqda».

(4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF. 2017-yil 9-fevral)

\* \* \*

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## **KLASTERLAR**

«Ipak yo'li iqtisodiy yo'nalishi» bo'yicha integratsiyalashgan sanoat texnoparklari, ilmiy-innovatsion klasterlar va erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish ham ustuvor yo'nalishimizga aylanishi darkor.

(1-tom, 409-bet)

\* \* \*

Paxta-to'qimachilik klasterlarini yaratish doirasida paxta xomashyosini bozor talablari asosida yetishtirish, narx-navoni shakllantirish va sotishni tashkil etish bo'yicha tajriba boshlandi. Kelgusida bunday ijobiy tajribani butun mamlakatimiz miqyosida joriy qilishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

(2017-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

... Qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug'ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – miniklasterlar tashkil etish.

(«Har bir oila – tadbirkor» dasturidan,  
3777-sonli PQ,  
2018-yil 7-iyun)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qo'raqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va tumanlar hokimliklari joriy qishloq xo'jaligi yilidan boshlab:

meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo'lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o'zaro bog'liq korxonalar guruhi doirasida;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo'jaligi yumushlarini tashkil qilish uchun ekish materiali, avans to'lovlarini taqdim etuvchi va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotni kelishilgan narxlarda sotib oluvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar, tayyorlovchi korxonalar, qayta ishlovchilar, eksport qiluvchilar o'rtaida kafolatlangan shartnomalar asosida «urug' – ko'chat – mahsulot yetishtirish – tayyorlash – saqlash – qayta ishlash – transportirovka qilish – bozorga yetkazish» tamoyili bo'yicha uzluksiz zanjirni shakllantirishni ko'zda tutuvchi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usulini keng joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilsin.

*(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida  
meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga  
doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ.  
2018-yil 29-mart)*

\* \* \*

Xususan, qisqa muddatda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimining infratuzilmasini takomillashtirish, umumiy quvvati yiliga million tonnadan ortiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni kompleks amalga oshirish klasterlarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar aholini sanitariya jihatidan

tozalash xizmatlari bilan qamrab olish ko'laming o'n baravardan ziyod ortishiga imkon berdi.

(3730-sonli «Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ. 2018-yil 18-may)

\* \* \*

... Qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'larini litsenziyalash mexanizmlarini, originatorlar tomonidan korxonalar va klasterlardan litsenziya bo'yicha olinadigan roylati sxemalari va miqdorlarini joriy etish.

(3683-sonli «O'zbekiston Respublikasida urug'chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ. 2018-yil 27-aprel)

\* \* \*

... Qo'shimcha qiymatlar zanjiri bo'yicha klaster usulida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish uchun shaxsiy va jalb qilingan moliyaviy mablag'lariga ega;

meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish, jumladan, eksport qilishni tashkil qilish, zamonaviy resurs va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rirlari yaratish vazifalarini o'z zimmasiga oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlariga (o'zaro bog'liq korxonalar guruhiga), birinchi navbatda, yerdan uzoq muddatli ijara shartlarida foydalanish huquqini taqdim etsin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF. 2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

Respublikada ishlab chiqarilmaydigan, maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni kompleks amalga oshirish klasterlarini tashkil qilish bo'yicha loyi-

---

halarni amalga oshirish doirasida o'rnatilgan taribda tasdiqlanadigan ro'yxatlar asosida olib kirilgan maxsus texnika, texnologik uskunalar, ehtiyyot qismlar, butlovchi buyumlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imidan tashqari) ozod qilinsin.

(3730-sonli «*Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ. 2018-yil 18-may)*

\* \* \*

... 2018-yilning 1-apreliдан bitta meva-sabzavot klasteri ichida sotiladigan mahsulotga qo'shimcha qiyemat solig'i solinmaydi va davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratmalar undirilmaydi.

(5388-sonli «*O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF. 2018-yil 29-sentabr)*

\* \* \*

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda:

2018-yilda har bir hududda 1-2 ta meva-sabzavot klasterlari tashkil etsin va 2019-yildan boshlab meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan barcha tumanlarni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shakliga jalgan etsin;

meva-sabzavot klasterlariga ichki hamda tashqi bozordagi ehtiyoj va tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, mahsulot yetishtirish hajmi, ularning navi va turini belgilash, shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklari bilan ular tomonidan tayyorlanayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish yuzasidan shartnomalar tuzish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqi taqdim etilsin;

---

meva-sabzavot klasterlariga ko'chatzorlar, jumladan, logistika markazlari (muzlatkich, ombor, qayta ishlash quvvatlari, laboratoriya, mashina-texnik stansiyalari uchun infratuzilma binolari)ni tashkil qilish uchun yer maydonlari ajratish to'g'risidagi qarorlar tezkor qabul qilinsin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

Meva-sabzavot klasterlarini, boshqa meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va eksportchilarini eksportoldi moliyalashtirish uchun tijorat banklarida kredit liniyalarini ochish;

ko'chatzorlarni tashkil qilish, meva-sabzavot klasterlari logistika markazlari, issiqxonalar qurish va intensiv bog'lar barpo etish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarini hajmini kengaytirish;

agronomlar va meva-sabzavot klasterlari, zamonaviy intensiv bog'lar va issiqxona xo'jaliklarining boshqa xodimlarini bir yilgacha bo'lgan muddatga yetakchi ixtisoslashgan xorijiy kompaniyalarga ta'llim olish va stajirovka o'tashga yuborish uchun grant mablag'lari va xalqaro tashkilotlarning texnik ko'mak mablag'larini jalgan etish bo'yicha takliflar kirlitsin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

... shu jumladan, xorijiy investorlarni jalgan qilgan holda zamonaviy refrijeratorli konteynerlar ishlab chiqarilishi, xalqaro registrlarda sertifikatsiyalash va ro'yxatdan o'tkazishni tashkil qilish, shuningdek, ularni

---

meva-sabzavot klasterlari, tayyorlov tashkilotlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilarga, shu jumladan, lizing orqali sotish tartibini belgilash bo'yicha.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi viloyatlar hokimliklari, meva-sabzavot klasterlari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining buyurtmalariga ko'ra jalb etiladigan xorijiy mutaxassislar uchun 12 oygacha bo'lgan muddatga kirish vizalari va ko'p martalik vizalar rasmiylashtirishni ta'minlasin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi viloyatlar hokimliklari, meva-sabzavot klasterlari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining buyurtmalariga ko'ra jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislar uchun davlat bojini undirmagan holda ko'p martalik vizalarni rasmiylashtirish, berish va uzaytirish, shuningdek, yashash joyi bo'yicha vaqtincha propiska qilish, hisobga qo'yish va vaqtincha propiskani uzaytirishni ta'minlasin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi meva-sabzavot klasterlari bu-yurtmalariga ko'ra belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasiga qishloq xo'jaligi bo'yicha yuqori mala-kali xorijiy mutaxassislarni jalg qilish uchun rux-satnomalar berilishi, shuningdek, ushbu xorijiy fuqa-rolarga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berish (uzay-tirish)ni ta'minlasin.

(5388-sonli «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF.  
2018-yil 29-sentabr)

\* \* \*

Odamlarning dunyoqarashi, mehnatga munosabati o'zgarmoqda. Dunyoqarashni nima o'zgartiradi? Ilm, daromad, manfaat.

(Navoiy viloyati faollari va mutasaddi rahbarlari  
ishtirokidagi yig'ilishda so'zlangan nutqdan.  
2018-yil 2-mart)

\* \* \*

... paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsuloti chiqarish bos-qichigacha bo'lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster mode-lini amalga oshirish.

(5285-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF. 2017-yil 14-dekabr)

\* \* \*

... to'qimachilik sanoati korxonalari, paxta-to'qimachilik klasterlarini hududlar salohiyatining yana-da rivojlanish istiqbollaridan, xomashyo bazasi, infratuzilmasi, mehnat resurslari va bozorlarning mav-judligidan kelib chiqib joylashtirishga ko'maklashish;

tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda to'qimachilik sanoati sohasida kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni va ularni tayyorlashning istiqbolli yo'naliшlarini aniqlash, mutaxassislarni tay-yorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish;

tarmoqning jadal rivojlanishi va to'qimachilik sanoati korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish, mazkur sohadagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

*(5285-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF. 2017-yil 14-dekabr)*

\* \* \*

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning samarali shakllaridan biri klasterlarni tashkil etish hisoblanadi. Mazkur model paxta xomashyosini yetishtirish, dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish siklini tashkil etishni ko'zda tutadi.

*(5285-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF. 2017-yil 14-dekabr)*

\* \* \*

Paxtani yetishtirishdan tortib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan klaster usuliga biz O'zbekiston paxtachiligining kelajagi sifatida qaramoqdamiz.

(«Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan

tantanali tadbirda so'zlangan nutqdan.

2017-yil 9-dekabr)

\* \* \*

... xomashyoni qayta ishlashga beruvchi sifatida paxta tozalash korxonalariga ular tomonidan paxta-to'qimachilik klasterlari tizimida faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashish.

(3408сонли «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ.

2017-yil 28-noyabr)

## TASHQI SIYOSAT

Biz tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

(1-tom, 92-bet)

\* \* \*

Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni, avvalo, xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz.

Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish tashkil etadi.

Biz bundan buyon ham uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettiramiz. Bu borada ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolamiz.

(1-tom, 128-bet)

\* \* \*

Biz o'zimiz tanlagan, tinchlikparvarlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy vositalar bilan hal etishga qaratilgan yo'lga doimo sodiqmiz.

(1-tom, 384-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz.

(2-tom, 144-bet)

\* \* \*

Haqiqiy diplomat bo'lish uchun faqat bilim va tajriba, chet tillarni bilish yetarli emas, buning uchun, avvalo, tug'ma talant kerak. Eng muhim, diplomat haqiqiy vatanparvar bo'lishi, o'z xalqi, o'z yurtining chinakam fidoyisi bo'lishi zarur.

(2-tom, 283-bet)

\* \* \*

Barchamizga ayonki, tashqi va ichki siyosat sohalariда oldimizda turgan muhim va ulkan vazifalarni hech kim chetdan kelib hal qilib bermaydi. Faqat o'zimizning kuch va imkoniyatlarimizga ishonishimiz, o'z salohiyatimizga tayanishimiz zarur.

(2-tom, 298-bet)

\* \* \*

Hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari O'zbekiston hududida joylashishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ilgarigidek, davlatimizning qat'iy siyosiy pozitsiyasi bo'lib qoladi.

(1-tom, 16-bet)

\* \* \*

Tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi, bu – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan aloqalarimizni mustahkamlashdan iborat.

(1-tom, 17-bet)

\* \* \*

Tashqi siyosatimizning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik tashkil etadi.

(1-tom, 91-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda hayotning o‘zi barcha sohalar kabi tashqi siyosat yo‘nalishidagi faoliyatimizni ham tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni, Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalarimiz, butun diplomatik korpusimiz ishini yangicha tashkil qilishni talab etmoqda.

(2-tom, 276-bet)

\* \* \*

Bunday g‘oyat murakkab va tahlikali sharoitda biz kuchli tashqi siyosat olib bormasdan turib, ko‘zlagan maqsadlarimizga erisholmaymiz.

(2-tom, 285-bet)

\* \* \*

Biz xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda muhim bir masalaga e’tibor qaratishimiz kerak. Ming afsuski, ushbu masalaga biz ko‘pincha ikkinchi darajali ish deb qarashga o‘rganib qolganmiz.

(2-tom, 285-bet)

\* \* \*

...eksport, eksport va yana bir bor eksport!

Gap O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xorijiy davlatlar bozorlariga eksport qilishga har jihatdan amaliy ko'maklashish haqida bormoqda. Bugungi kunda dunyodagi ko'plab davlatlar, xususan, rivojlangan mamlakatlarning tashqi siyosat faoliyatida aynan shu masalaga eng ustuvor ahamiyat berilishini sizlar yaxshi bilasizlar.

(2-tom, 286-bet)

\* \* \*

Mamlakatlarimiz dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarda o'zaro mos yoki yaqin qarash va yonda-shuvlarga amal qilib kelmoqda. Ayni vaqtida, xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to'la javob beradigan iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, turizm, ilm-fan va ta'lif kabi sohalarda o'zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda.

*«Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi  
sammiti»da so'zlangan nutqdan.*

2018-yil 3-sentabr

\* \* \*

Hozirgi murakkab zamon, tinch osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizni kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yemoqda.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul  
qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimda qilingan ma'ruzadan. 2016-yil 7-dekabr)*

\* \* \*

Ochiqlik, o'zaro teng va manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni davom ettirish va uning samaradorligini yanada oshirish choralarini ko'rishimiz zarur.

Siyosiy-iqtisodiy munosabatlar doirasini kengaytirish uchun chet davlatlarda O'zbekistonning yangi

---

vakolatxonalarini ochish, xodimlar sonini ko'paytirish kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Biz kelgusi yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib boramiz.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

«Elchi ikki masalada nihoyatda hushyor bo'lishi zarur. U o'z davlatiga sadoqatini namoyon etish uchun mamlakatning obro'si va sha'nini, shon-shuhratini, saltanatning ulug'verligini har jihatdan ehtiyoq qilishi lozim. Shuning bilan birga, chet mamlakatlar bilan bo'ladigan munosabatlarda u yerdagi do'stlarning xayrixohligi va g'animlarning makr-hiylasidan doimo ogoh va hushyor bo'lib turishi darkor».

(2-tom, 238-bet)

## SPORT

«Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalari bilan chegaralanib qolish kerak emas. Iqtidorli o'smir va qizlarni tanlab olish va tarbiyalash bo'yicha jiddiy seleksiya ishlarini amalga oshirish zarur.

(1-tom, 253-bet)

\* \* \*

Sizlar qo'lga kiritgan mislsiz bu g'alaba butun xalqimizga cheksiz quvонch bag'ishlab, O'zbekiston yoshlarining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Bu ulkan zafar, hech shubhasiz, mam-lakatimizdagi millionlab yoshlarni mardlik va matonat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga ulkan hissa qo'shamdi.

(2-tom, 459-bet)

\* \* \*

El-yurtimiz sizlar kabi mard va jasur, fidoyi o'g'lonlari bilan, yurtimizning haqiqiy qahramonlari bilan faxrlanadi.

(2-tom, 459-bet)

\* \* \*

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir.

Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'-

---

batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz.

Yosh avlodimiz o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etamiz.

\* \* \*

2020-yilda Tokioda o'tkaziladigan yozgi Olimpiadaga puxta tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz lozim.

Yana bir muhim masala – mamlakatimizda qishki sport turlari bo'yicha xalqaro talablar darajasida sportchilar tayyorlash samarali tizimini yaratish kerak.

Poytaxtimizda barpo etilayotgan «HUMO ARENA» muz sporti saroyi, shuningdek, yaqinda Toshkent viloyatining Amirsoy dam olish maskanida ishga tushiriladigan zamonaviy majmua ham ayni shu maqsadlarga xizmat qiladi.

*(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)*

\* \* \*

Mamlakatimiz shuhratini dunyoga tarannum etayotgan sportchi yoshlarimizga, ularning ota-onalari, ustozi va murabbiylariga sizlarning nomingizdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

*(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda  
so'zlangan nutqdan. 2018-yil 31-avgust)*

## FERMERLIK, QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROSANOAT

Qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifa, avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir.

(1-tom, 65-bet)

\* \* \*

Biz qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini o'zgartirishimiz darkor. Halol ishlagan odam albatta daromad topishi kerak. Buning uchun yer unum-dorligini oshirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlarining samaradorligini yanada kuchaytirish, resurslardan, avvalo, suvdan oqilona foydalanish, tejamkor texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berishimiz zarur.

(1-tom, 68-bet)

\* \* \*

Qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi vazifa – ko'p tarmoqli fermerlikni rivojlantirish, har bir fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashdir. Bu masalani biz mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning garovi deb hisoblaymiz.

(1-tom, 15-bet)

\* \* \*

Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi,

---

ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

(1-tom, 147-bet)

\* \* \*

Dehqon deganda, bepoyon dalalar, bog'-u rog'lar, dasturxonimizdagi turli noz-ne'matlar, to'y-tomoshalar, xursandchilik kunlarimiz, butun hayotimiz ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, dehqon, bu – hayotning baquvvat us-tuni, tiriklikning mustahkam tayanchi desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

(2-tom, 42-bet)

\* \* \*

Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo'jaligida asosiy kuch bo'lib, nafaqat mazkur sohani, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyos ishlarni amalga oshirayotganini bugun faxr va g'urur bilan, minnatdorlik bilan qayd etamiz.

O'zbek dehqonlari ona zaminimizga, muqaddas tuprog'imizga eng sadoqatli, el-u yurt taqdiri uchun chinakam fidoyi insonlardir. Ularning bunday fazilatlaridan barchamiz o'rnak olsak arziydi.

(2-tom, 50-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda oldimizda turgan eng asosiy muammolardan biri, bu – respublikamiz qishloq xo'jaligida ilm va amaliyotning bir-biridan uzoqlashgani, aksariyat hollarda uzilib qolganidir.

(2-tom, 63-bet)

\* \* \*

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yersuv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda.

(2-tom, 44-bet)

\* \* \*

Qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak.

Yerdan samarali foydalanib, mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga o'z faoliyatini kengaytirishi uchun qo'shimcha yer maydonlarini ajratish lozim.

Agrar sohada eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch-g'ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi. Lekin, afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz.

Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur.

Fermerlar kengashi Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi, Innovatsion rivojlanish vazirliklari bilan hamkorlikni kuchaytirishi, fermerlarni o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishi lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Vaqtida oldi olinmasa, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashilmasa, bunday jiddiy kamchiliklar qishloq xo'jaligi unumdarligi va natijadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini barcha rahbarlar yaxshi tushunib yetishi zarur. Yuqorida aytilgan reja va dasturlarni amalga oshirish uchun bizda kuch va imkoniyatlar, bilim va

tajriba yetarli. Gap faqat ishni fidoyilik va omilkorlik bilan, to'g'ri va samarali tashkil etishimizga bog'liq.

(2-tom, 68-bet)

\* \* \*

Qishloq xo'jaligi sohasida erishayotgan yutuq va natijalarimiz haqida yana ko'p gapishimiz mumkin. Lekin yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish, xotirjamlikka berilish bizga yarashmaydi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham juda ko'pligini barchamiz yaxshi bilamiz.

(2-tom, 50-bet)

## SANOAT VA TRANSPORT

Yo'l masalasi xuddi suvdek, havodek juda muhim, u - iqtisodiyotimizning qon tomiri.

(1-tom, 79-bet)

\* \* \*

Bu istiqbolli tajribani keng yoyish maqsadida mamlakatimizdagi o'ttizdan ziyod yengil sanoat korxonasiga to'rt yuz ming gektardan ko'proq paxta maydonlari biriktirib beriladi.

(2-tom, 63-bet)

\* \* \*

Joriy yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasasi faoliyati yo'lga qo'yildi va bu tashkiliy choralar hududlarni jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Yaqin vaqt ichida yana 50 ta yangi sanoat zonasini tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

(2-tom, 76-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizdagi barcha turdosh korxonalarini birlashtirgan Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasining tashkil qilinishi milliy mudofaa-sanoat kompleksini shakllantirish yo'lidagi birinchi va muhim qadam bo'ldi.

(2-tom, 157-bet)

\* \* \*

Biz bugun taraqqiyotimizning umumiy ustuvor yo‘nalishlarini anglagan holda, chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o‘tkir mintaqaviy masalalarini yechish bo‘yicha oqilona murosa yo‘lini izlamoqdamiz.

(2-tom, 265-bet)

\* \* \*

Transport sohasidagi hamkorlik kengaydi. Tojikiston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar tiklandi. Tovar ayirboshlash hajmi oshmoqda, chegaraoldi hududlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda, madaniygumanitar sohadagi munosabatlar faollahashmoqda.

(2-tom, 266-bet)

\* \* \*

O‘zbekiston bundan keyin ham bu qo‘shti mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrular tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishini ta’kidlamoqchiman.

(2-tom, 269-bet)

\* \* \*

Transport va kommunikatsiyalar sohasi, MDH mintaqasida samarali integratsiyalashgan transport tizimi rivojlantirish, mintaqamizning ulkan tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish strategik muhim yo‘nalishdir.

(2-tom, 329-bet)

\* \* \*

Xususan, yoshlar uchun yangi ish o‘rnlari yaratish, yosh tadbirkorlarga, ayniqsa, qizlarimizga hunarmandlik bilan shug‘ullanishlari uchun kreditlar ajratish, ularni kasbga tayyorlash va malakasini oshirish, fermerlikni

---

qo'llab-quvvatlash, farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasi, ularni sog'lomlashtirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

(2-tom, 490-bet)

\* \* \*

Biz transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish hamda davlatlarimiz va butun mintaqamizning ulkan tranzit salohiyatini samarali ishga solishga qaratilgan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirmoqdamiz.

(2-tom, 380-bet)

\* \* \*

Xalqaro transport yo'lagining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tranzit tariflarini yanada maqbullashtirish muhim deb hisoblaymiz.

(2-tom, 388-bet)

---

## AXBOROT KOMMUNIKATSIYALARI VA INTERNET

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o'rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur.

(1-tom, 86-bet)

\* \* \*

Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda «to'rtinchi hokimiyat» darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi.

(2-tom, 485-bet)

\* \* \*

Ayni vaqtida, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarimizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi deb o'ylayman.

(1-tom, 86-bet)

\* \* \*

Albatta, biz Internet va boshqa zamонавиј axborot manbalarining o'rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Bugungi hayotimizni Internetsiz tasavvur qilishning o'zi qiyin.

Shuni hisobga olgan holda, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Internet tizimi orqali ma'naviy targ'ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirishi zarur.

(1-tom, 529-bet)

\* \* \*

Jamiyatimiz hayotida demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi. Bu borada chinakam professional, zamонавиј журналистикани shakllantirish, xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini, axborot va tahliliy Internet saytlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish, buning uchun alohida davlat fondini tuzish maqsadga muvofiq.

(2-tom, 104-bet)

\* \* \*

Jinoyatchilikning oldini olish maqsadida yangi dastur va rejalar amalga oshirilmooda. Jumladan, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Mahallalar, ko'chalar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida 114 mingdan ortiq videokuzatuv vositasi o'rnatildi. Ularning yordamida 10 mingga yaqin jinoyat fosh etildi.

(2-tom, 22-bet)

\* \* \*

Yana bir inkor etib bo'lmaydigan haqiqat borki, fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko'zlagan

---

maqsadlarga erishib, oldimizga qo‘yilgan vazifalarning  
to‘liq uddasidan chiqamiz.

(*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan  
tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan.*)

2018-yil 10-dekabr)

\* \* \*

Bu jarayonda kuchli va ta’sirchan jamoatchilik na-  
zoratining o‘rnii beqiyosdir. Shu maqsadda kelgusi yil-  
dan boshlab «Jamoat fikri» portalini ishga tushirishga  
qaror qildik.

(*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan  
tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan.*)

2018-yil 10-dekabr)

## YOSHLAR TARBIYASI

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

(1-tom, 27-bet)

\* \* \*

Yuksak ma'naviyatlari, zamonaviy bilim va kasbhunarlargani, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.

(1-tom, 88-89-betlar)

\* \* \*

Avvalambor, «ommaviy madaniyat» ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajodolarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz.

(1-tom, 89-bet)

\* \* \*

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.

(1-tom, 125-bet)

\* \* \*

Jonajon Vatanimizning yangi qiyofasini yaratishda o'z mehnati, tashabbuskorligi va ma'naviy fazillari bilan boshqalarga o'rnak va namuna bo'layotgan azm-u shijoatli yoshlarimiz uchun «Mard o'g'lon» davlat mukofoti hamda «Kelajak bunyodkori» medallini ta'sis etganimiz va bugun sizlarning orangizda shu mukofotlarning ilk sovrindorlari borligi barchamizga mammuniyat bag'ishlaydi.

(2-tom, 492-bet)

\* \* \*

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchi-ga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarmizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliyl dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yet-kazishimiz zarur.

(1-tom, 145-bet)

\* \* \*

Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

(1-tom, 145–146-betlar)

\* \* \*

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'ladi.

Ana shunday yorug' keljakni, avvalambor, sizdek azm-u shijoatli, jo'shqin orzu-intilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan, hech kimdan kam bo'lmaydigan navqiron avlodimiz, butun O'zbekiston yoshlari barpo etadi.

(1-tom, 415-bet)

\* \* \*

Ba'zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani, achchiq bo'lsa-da, haqiqat.

(1-tom, 486-bet)

\* \* \*

Yoshlarimizning hayotiy muammolariga yanada ko'proq e'tibor qaratish, ularga mos bo'lgan zamona-viy ish o'rinalarini ko'paytirish, ezgu intilish va ta-shabbuslari, innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, yosh avlodimizning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bundan buyon ham barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy, hal qiluvchi vazifasi bo'lib qoladi.

(2-tom, 495-bet)

\* \* \*

Ayni vaqtida, O'zbekiston yoshlarining zamon bilan hamnafas bo'lib, dunyoning olis va yaqin mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan samarali muloqot, do'stlik va hamkorlik munosabatlari o'rnatishi g'oyat muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

(2-tom, 497-bet)

\* \* \*

Siz, jondan aziz o'g'il-qizlarimizdan faqat bitta iltimosimiz, bitta tilagimiz bor: ota-onalaringiz, ustoz-murabbiylaringiz, xalqimizning sizlardan kutayotgan orzu-umidlarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarish yo'lida hormang, charchamang!

O'qish-o'rganish, doimiy izlanish, ilm-fanga, taraq-qiyot cho'qqilarini egallahsga intilib yashash doimo hamrohingiz bo'lsin!

(2-tom, 498-bet)

\* \* \*

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishslash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning bandligini ta'minlash maqsadida «Yoshlar – kela-jagimiz» jamg'armasi faoliyatini yanada kengaytirish zarur.

2019-yilda jamg‘arma uchun 2 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratish va shu orqali 50 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratish lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Biz – barchamiz, qayerda bo‘lmaylik, yagona O‘zbekiston farzandlari ekanimizni anglab, shu buyuk tuyg‘uni e’zozlab yashasak, albatta kam bo‘lmaymiz.

(2-tom, 497-bet)

\* \* \*

Hammamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz, 2019-yil uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish, albatta, oson bo‘lmaydi.

Hali faqat qog‘ozda bo‘lgan bu reja va dasturlarni amaliy ishlarga, real natijaga aylantirish uchun barchamiz birgalikda qattiq mehnat qilishimiz kerak.

Bu yo‘lda bizga ishonch va ilhom, g‘ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o‘z maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Bu – hayot sinovlarida toblangan, so‘zida qat’iy turadigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir.

Biz bugun ko‘pmillatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz.

Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz.

Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.

Biz demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga – yangi, yuksak marralar sari boramiz.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘sish – Yaratganning o‘zi bizga bergen tarixiy imkoniyat desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Barchamiz buni chuqur anglashimiz, qadriga yetishimiz zarur.

---

Jonajon Vatanimiz oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajarish hammamizga nasib etsin!

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Odamlarning dard-u tashvishi, manfaatlarini o'y-lab yashash, aholi uchun munosib sharoitlar yaratish, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin olishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilaganmiz.

(1-tom, 302-bet)

\* \* \*

Biz mamlakatimizda qanday dastur va rejalar qabul qilsak, ularning barchasida umidimiz, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimiz manfaatlarini alohida hisobga olmoqdamiz.

(*O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda  
qilingan ma'ruzadan. 2018-yil 31-avgust*)

\* \* \*

O'zbekiston yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o'ziga xos markaz bo'lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun «sotsial lift» vazifasini bajarishi kerak. U bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi, fidoyi yosh rahbarlarning kadrlar zaxirasini yaratishi kerak.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».  
«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizi-

---

mini rivojlantirishimiz, o'rta va oliv o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqyapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani, o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilyapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'lyapti?..

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».

«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin, ayni paytda, o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».

«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».

«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Dunyodagi rivojlangan, demokratik mamlakatlarda yoshlар tashkilotlari dabdbabali, balandparvoz tadbirlar o'tkazish emas, balki yoshlар bilan bevosita ishslash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o'ylantirayotgan hayotiy muammolarini hal etishga asosiy e'tiborni qaratadi.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».  
«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Iqtidorli, tarbiyali bolalar bilan ishslash oson, lekin hayotda qoqilgan yoki yomon muhitga tushib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga, ezgu maqsadga da'vat qilish, ishontirish qiyin. Yangi tashkilot mana shu og'ir, lekin o'ta zarur vazifani o'z zimmasiga olishi ayni muddao bo'lur edi. Biz uyushmagan yoshlар, uyushmagan yoshlар deb ko'p gapiramiz. Lekin bu masalani huquqiy va amaliy jihatdan hal qilishga kelganda, ochiq aytish kerak, ko'pchiligidan nima qilish lozimligini bilmaymiz.

(«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».  
«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun)

\* \* \*

Yoshlарimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bu muhim ishda biz yoshi ulug‘, ulkan hayotiy tajribaga ega, nuroniy oqsoqollarimiz, katta avlod va killarimizning maslahatlari va faol ko‘magiga umid qilamiz va tayanamiz. Aynan ana shunday tabarruk insonlarning vatanimizga bo‘lgan buyuk mehr-muhabbi va jonkuyarligi tufayli mustaqil O‘zbekiston davlatining mustahkam zamini yaratildi.

*(Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.*

— Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.  
11-12-betlar)

\* \* \*

Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o‘ylayman. Mana, bugungi kunda qancha-qancha yoshlарimiz chet ellarda ta’lim olmoqda, mehnat qilmoqda. Albatta, ularning orasida o‘z yo‘lini topib, begona yurtda hech kimdan kam bo‘lmay yashayotganlari ham ko‘p. Lekin Vatan sog‘inchi har qanday odamni ham qiy Naydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloqa o‘rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizga qaytish istagida bo‘lganlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur.

(2-tom, 139-bet)

## NURONIYLAR

Ma'lumki, xonadonlarimizning fayz-u farishtasi bo'l-gan nuroniy otaxon va onaxonlarimizni e'zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, qo'limizdan kelganicha umrlarini uzaytirish asrlar davomida eng ulug' qadriyatlarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Chunki, mo'tabar keksalarning nasihatlari, duolari bilan hayotimiz fayzli, yurtimiz tinch va obod, xonadonlarimizda qut-baraka barqaror desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Dono xalqimizning «Qarisi bor uyning parisi bor» degan hikmatli so'zlarida chuqur ma'no bor.

(1-tom, 83–84-betlar)

\* \* \*

Nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qot-ganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazi-famiz bo'lib qoladi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

«Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeini ko'tarish, uning tuman, viloyat va respublika tuzilmalari shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi.

Masalan, viloyat miqyosida «Nuroniy» jamg'armasi bor, lekin tuman miqyosida keksalarimizning muammolari bilan shug'ullanadigan odamlar yo'q. Agar biz ota-onalarimizga haqiqiy yordam beramiz desak, ularni hayot paytida qadrlashimiz, e'zozlashimiz kerak. Men shu gaplarni yuragimdan aytyapman, ertalab ishga

---

ketishimizda, ortimizdan duo qilib qoladigan, kechqurun ochiq yuz bilan kutib oladigan ota-onalarimiz, bobo va momolarimizning bo'lishi, bu – o'zi qanday katta baxt. Shu masalada ko'p odamda armon bor. Hayotimizda armon bo'lmasligi uchun bu ishlarni hozir qilishimiz kerak.

(1-tom, 84-bet)

\* \* \*

Mana, biz Surxondaryoda bo'lganimizda Iso at-Termizi bobomizning maqbarasini ziyorat qildik. Hammamiz bilamiz, bu ulug' alloma payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom to'g'risida kitob yozganlar. Imom Buxoriy Termiziyning ustozi bo'lgan ekan. Ustozi vafot etganidan keyin tinimsiz yig'lab, ko'zi ko'r bo'lib, dunyodan o'tgan ekan. Ustozga bo'lgan mehr-muhabbatning kuchi bu. Iso at-Termizi hayot paytlarida ustozi Imom Buxoriy: «Siz mening shogirdim bo'lsangiz ham men sizdan ko'p narsa o'rganganman, ezgulikka sadoqat, mehr-muhabbat va ustozga bo'lgan hurmatni sizdan o'rgandim» deb aytgan ekanlar.

(1-tom, 87-bet)

\* \* \*

Xalq hokimiyatining eng muhim poydevori sifatida jamoatchilik nazorati institutini kuchaytirish bo'yicha mamlakatimiz Konstitutsiyasining 32-moddasida, shuningdek, «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunlar va boshqa hujjalarda muhrlab qo'yilgan talablarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Bu muhim ishda biz barcha fuqarolarimiz, eng avvalo, yoshi ulug', ulkan hayotiy tajribaga ega nuroniyoqsoqollarimiz, katta avlod vakillarining maslahatlari va faol ko'magiga umid qilamiz va tayanamiz.

(1-tom, 141–142-betlar)

\* \* \*

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, yurtimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona xizmatlari uchun muhtaram nuroniylarimizga, qadrli mehnat faxriylariga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va samimiy tilaklarimni bildirishga, ularning barchasiga uzoq umr, mustahkam sog'lik, baxt-u saodat va farovonlik tilashga ruxsat bergaysizlar.

(1-tom, 142–143-betlar)

\* \* \*

Shu borada bir fikrga alohida urg'u berib ta'kidlamoqchiman: yoshi ulug' insonlar, katta avlod vakillariga e'tibor va amaliy g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shu maqsadda pensionerlar, yolg'iz qariya va nogironlarga davlat ko'magini kuchaytirish bo'yicha ayni paytda keng qamrovli chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi va ular so'zsiz amalgalashdi.

(1-tom, 143-bet)

\* \* \*

Aziz do'stlar, mo'tabar otalarimiz, mehribon onalarimiz boshimizdag'i toji davlatimiz ekanini hech qachon unutmaylik. Bu g'animat, ko'z ochib yumguncha o'tib ketadigan hayotda ularni qancha qadrlab, imkon qadar umrlarini uzaytirishga qancha harakat qilsak, ikki dunyoda aslo kam bo'lmaymiz.

Agarki mendan, dunyodagi qaysi oila eng baxtli deb so'rashsa, hech ikkilansmasdan, keksalari bosh bo'lib, izzat-hurmatda hayot kechirayotgan oila deb javob bergen bo'lardim.

(1-tom, 398-bet)

## XOTIN-QIZLAR

Jamiyatimizda tinchlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib voyaga yetkazishda beqiyos o'rin tutadigan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi nufuzini yanada oshirishimiz zarur. Ular uchun munosib shart-sharoitlar, yangi ish o'rirlari yaratish, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, salomatligini mustahkamlash, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish bundan keyin ham muhim vazifa hisoblanadi.

(1-tom, 83-bet)

\* \* \*

Yaratganning bebafo mo'jizasi bo'lgan aziz ayollarimiz, qadrli onalarimiz, mehribon rafiqalarimiz, munis opa-singillarimiz, sevimli qizlarimiz va nabiralarimiz hayotda bizga barcha to'siqlarni yengib o'tish, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish yo'lida doimo g'amxo'rlik qilib, hamisha cheksiz ishonch, kuch va madad beradilar.

Sizlarning onalik mehringiz va saxovatingiz, ayollik tarovatingiz va mehr-oqibatingiz uchun biz sizlardan umrbod qarzdormiz.

(1-tom, 143-bet)

\* \* \*

Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-

---

ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmos'i zarur.

(1-tom, 281-bet)

\* \* \*

Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta'zim qilamiz.

Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot, bu, avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi.

Biz Ona timsolida Vatanimizni, uning go'zal va betakror qiyofasini ko'ramiz. «Ona Vatan» degan ibora bejiz aytilmagan, bunda chuqur ma'no bor. Insonni inson qiladigan mana shunday yuksak tuyg'u va tushunchalarni bolalarimiz qalbiga yoshligidan singdirsak, shoirlarimiz, rassomlarimiz, san'atkorlarimiz onalarni, ayollarni tarannum etadigan yangi-yangi asarlar yaratsalar, nur ustiga nur bo'lur edi.

Ayolni e'zozlash, ayolga ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos oljanob qadriyat hisoblanadi. Biz, bar-chamiz qanday kasb, qanday lavozimda ishlamaylik, qalbimiz, yuragimizdagи jamiki ezgu fazilatlar uchun Siz, mehribon ayollardan umrbod qarzdormiz.

Ayniqsa, Siz, azizlarning sog'lom zurriyot, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o'rningiz va xizmatingizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo'lmaydi.

Sizlarning mehr-muhabbatingiz, vafo va sadoqatingiz, fidoyiligingiz sababli hayotimiz charog'on. Sizlar tufayli oilalarimizda tinchlik-osoyishtalik, qut-baraka hukm surayotgani uchun barchangizga har qancha tasanno aytsak, arziydi, albatta.

(1-tom, 342-343-betlar)

\* \* \*

Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasini uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Bu, albatta, isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi kundalaridan boshlab xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu asosda onalik va bolalikni himoyalash, oila institutini qo'llab-quvvatlash, ayollarning og'irini yengil qilish, ularning jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

(1-tom, 345-346-betlar)

\* \* \*

Men joylarda bo'lib, xalqimiz vakillari, muhtarama ayollarimiz bilan muloqotda bo'lganimda, ularning quvonch va tashvishlari bilan yaqindan tanishganimda, turli qiyinchilik va muammolarga qaramasdan, — hayot o'zi hech qachon muammosiz bo'lmaydi, — opasingillarimizning orzu-intilishlari, hayotga, ertangi kunga katta ishonch bilan qarayotganini ko'rib xursand bo'laman. Chunki biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalarni amalga oshirishning eng muhim sharti, eng asosiy zamini ham aslida xalqimizning mana shunday ishonchidir.

(1-tom, 349-bet)

\* \* \*

Oilalarda tibbiy, huquqiy madaniyatni yuksaltish, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimizni, avvalambor, qiz bolalarni ish bilan ta'minlash davlat idoralarining birinchi galadagi vazifasi bo'lishi shart.

(1-tom, 349-bet)

\* \* \*

Hammaga ma'lum, yoshlar bilan ishslash, oila va ayollar masalasi har doim biz uchun muhim vazifa hisoblangan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

(1-tom, 583-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda shu paytgacha xotin-qizlarni eng ko'p bezovta qilib kelgan masala – maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bu chuqur o'yangan siyosat bo'lib, yurtimizda uzlucksiz ta'lim va tarbiya tizimini mukammal shakllantirish imkonini beradi.

(2-tom, 467-bet)

\* \* \*

Siz, hurmatli ayollarimiz o'zingizning onalik meh-ringiz, hayotiy bilim va tajribangiz bilan farzandlarimizni turli xavf-xatarlardan asrashda, ularni mustahkam irodali, ma'naviy-intellektual jihatdan yetuk, jonajon Vatanimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashda bundan buyon ham kuch-g'ayratingizni ayamaysiz deb ishonaman. Ayniqsa, qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilimlar, kasb-hunarlarg'a o'rgatishda biz, avvalo, sizlarga suyanamiz.

(2-tom, 475-bet)

\* \* \*

Farzandlar tinchligi, ularning baxti, kamoli – jamiyatning eng katta boyligi. Buning ahamiyatini ota-onab o'lgan odam biladi. Ayniqsa, hozirgi notinch, murakkab zamonda bu haqiqatni yanada chuqurroq anglash – bu ham hayot talabidir.

(2-tom, 475-bet)

\* \* \*

Xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

Bu borada joriy yilda ko'rilgan amaliy choralarga qaramasdan, haligacha og'ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qiz borligi achinarlidir.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Xotin-qizlar qo'mitasi hududiy hokimliklar bilan birgalikda bir oy muddatda ana shunday ayollarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan dastur ishlab chiqishi zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## MAHALLA FUQAROLARI YIG'INLARI

Ma'lumki, dunyoda noyob, o'xhashi yo'q mahalla tizimi mustaqillik yillarda aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi. Qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan bo'lsa, o'sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo'l qo'yilmayapti.

Agar mahallada rais, profilaktika inspektori o'z ishiga fidoyi bo'lsa, bu yerda muhit mutlaqo boshqa bo'ladi. Nega desangiz, agar ular shu hududning haqiqiy egasi bo'lsa, mahallalarda bezorilik sodir bo'lishi mumkin emas.

(1-tom, 58-59-betlar)

\* \* \*

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida qonuniylik hamda alohida himoyaga muhtoj bo'lgan, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga nafaqa tayinlashda ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlashimiz zarur.

(1-tom, 198-bet)

\* \* \*

«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz, avvalo, ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.

(1-tom, 141-bet)

\* \* \*

Mahalla instituti shuning uchun chin ma'noda xalqning joylardagi maslakdoshi va ko'makdoshiga, «adolat tarozisi»ga aylanishi odamlarning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

(1-tom, 59-bet)

\* \* \*

Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilar, yoshlari, xotin-qizlar tashkilotlari faoliari – barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozim.

(2-tom, 142-bet)

\* \* \*

Ishonchim komil, xalqimiz ziyorolarining ilg'or vakillari bo'lgan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar mam-lakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlari o'rtaida sog'lom turmush tarzini qaror top-tirish, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, hayotda o'zini oqlagan maktab, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan ijtimoiy tizim samarasini oshirishda faol ishtirok etib, barchaga o'rnak va namuna bo'lasizlar.

(2-tom, 449-bet)

\* \* \*

Faqatgina xalqimizning azm-u shijoati va qudra-ti, bukilmas irodasi va qat'iyati, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo'lgan mustahkam ishonchi buyuk maqsadlarimizga erishishning birdan-bir kafolatidir.

(1-tom, 94-bet)

## KADRLAR VA RAHBARLAR

Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat’iyat bilan harakat qilishimiz zarur.

(1-tom, 154-bet)

\* \* \*

Agar rahbarlarimiz xalq vakillari bilan maslahat qilib ish tutsa, xato kam bo‘ladi. Shuning uchun vakillik hokimiyati organlari ishi samarali bo‘lishida partiyalarimiz faolligini oshirishimiz shart.

(1-tom, 44-bet)

\* \* \*

Bugun oddiy odamlar bizdan nimani kutyapti? Eng avvalo, davlat idoralariga qilgan murojaatlari o‘z vaqtida, xolisona va qonuniy hal etilishini kutmoqda. Lekin, ayrim rahbarlarning aholi ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqishda sansalorlik, mas’uliyatsizlik, ortiqcha rasmiyatçilikka yo‘l qo‘yayotgani odamlarni bezdirmoqda.

(1-tom, 48-bet)

\* \* \*

Birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbar va mas’ul xodimlarning og‘zaki va yozma murojaatlar bilan ishslashga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishimiz shart. Odamlar bilan ularning tilida gaplashish, dardini eshitish va muammolarini hal qilishning samarali usullarini joriy etish ustida jiddiy bosh qotirishimiz zarur.

---

Afsuski, biz rahbar bo'ldikmi, darrov yurish-turishimiz o'zgaradi. Odamlarning dardini go'yoki bilmaymiz yo bilishni xohlamaymiz. O'ylaymanki, bu masalaning juda muhimligini inobatga olib, uni davlat siyosatining ustuvor vazifalari darajasiga ko'tarish payti keldi. Shunda bizning dunyoqarashimiz ham o'zgaradi, shu bilan birga, hayotimiz ham o'zgaradi.

(1-tom, 49-bet)

\* \* \*

Har bir holat va vaziyat bo'yicha tuman hokimi, viloyat hokimi va boshqa mas'ul rahbarlar shaxsan javob beradigan vaqt keldi.

(1-tom, 53-bet)

\* \* \*

Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga,adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qurbi yetmaydigan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan jiddiy choralar ko'riladi. Lo'nda qilib aytganda, bunday loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o'rinn yo'q.

(1-tom, 53-bet)

\* \* \*

Shu bilan birga, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, qonunlar ijrosini ta'minlash, joylardagi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish borasida mahalliy hokimliklarning vazifa va vakolatlarini ham takomillashtirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

(1-tom, 54-bet)

\* \* \*

Aravani tortgan odam biz bilan ishlaydi, tortmagan odam ishlamaydi.

(1-tom, 55-bet)

\* \* \*

Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'z-lashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tay-yorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi.

(1-tom, 55-bet)

\* \* \*

Sodda qilib aytganda, xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi.

(1-tom, 56-bet)

\* \* \*

Fuqarolarning har qanday muammolarini hal etish davlatning xalqqa nisbatan asosiy majburiyatlaridan biri ekanini unutishga hech kimning haqqi yo'q. Shuning uchun rahbarlar muntazam ravishda xalq orasida bo'lib, shaxsiy qabulxonalar tashkil etishlari, joylardagi muammolarni hal qilishlari zarur. Bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga baho berish, birinchi navbatda, o'z hududidagi aholi murojaatlari soniga qarab, ularning amaliy yechimiga qarab va xalq ichida yurishiga qarab belgilanadi. Qisqa qilib aytganda, ularga xalqning o'zi baho beradi.

(1-tom, 57-bet)

\* \* \*

Shu bilan birga, ko'plab davlat xizmatchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklanganiga qaramasdan, ularning ish kuni va ish haftasi aniq me'yorga solin-magani hech kimga sir emas. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchilariga yuksak talablar qo'yishdan oldin ularning huquqlarini kafolatlash va himoya tizimi bilan mustahkamlash darkor.

(1-tom, 58-bet)

\* \* \*

Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dard-u tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Yaqinda bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvlarda men bir narsaga amin bo'ldim. Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiyl gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi.

(1-tom, 114-bet)

\* \* \*

Shu sababli ana shu qonun talablarini bajarma-yotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma'muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur deb hisoblayman.

(1-tom, 115-bet)

\* \* \*

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur.

(1-tom, 116-bet)

\* \* \*

Aholi bilan doimiy muloqot qilish, uning qonuniy talablari, so'rov va takliflarini amalga oshirish uchun aniq choralar ko'rishni men o'zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa deb hisoblayman.

Endi nafaqat hukumat, balki mutasaddi vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, shuningdek, hokimlarning ham bu boradagi faoliyati yakunlari bo'yicha hisobot berish tizimi joriy etiladi va shunga qarab ularning ishiga baho beriladi. Shu sababdan har bir rahbar va

---

mansabdor shaxsdan ayni shu asosda tizimli va samarali ish olib borishni talab etaman.

(1-tom, 150-bet)

\* \* \*

Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz, birinchi navbatda, kim bilan muloqot qilishimiz kerak? Odamlarimiz bilan.

Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak? Avvalo, xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi.

(1-tom, 151-bet)

\* \* \*

Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart.

(1-tom, 152-bet)

\* \* \*

Muxtasar qilib aytganda, bizlar hammamiz – davlat rahbaridan tortib, eng quyi pog'onadagi rahbar – mahalla raisigacha ona xalqimizning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida xizmat qilamiz.

(1-tom, 167-bet)

\* \* \*

Umuman olganda, bundan keyin vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari va hokimlarning faoliyati natijasi quruq iqtisodiy raqamlar bilan emas, balki ularning odamlar bilan qanday muloqot

---

olib borayotgani va ishni tashkil etgani, fuqarolarning muammolarini qay darajada hal qilayotganiga qarab baholanadi va tegishli xulosalar chiqariladi.

(1-tom, 153-bet)

\* \* \*

Oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni samarali hal etish, eng avvalo, davlat rahbari sifatida shaxsan menden, davlat hokimiyatining uchta tarmog'idan, shuningdek, barcha rahbar va mansabdar shaxslardan qat'iy intizomni talab etadi.

Ishimizni to'g'ri tashkil etish, uning samaradorligini ta'minlash, butun boshqaruv tizimi faoliyatini sifat jihatidan zamon talablari darajasiga ko'tarishni bugun hayotning o'zi talab etmoqda.

(1-tom, 154-bet)

\* \* \*

Asosiy vazifa, bu – yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdar shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat.

(1-tom, 162-bet)

\* \* \*

Biz – el-yurt ishonch bildirgan rahbarlar xalqimiz bilan, avvalo, o'zimiz muloqot qilmasak, uning dard-u muammolarini eshitib, o'zimiz hal etmasak, jamiyatimizning ijtimoiy kayfiyatidan doimo xabardor bo'lib yashamasak, bizning o'rnimizga chetdan keladigan, qo'shtirnoq ichidagi «mehribon»lar albatta topiladi.

(1-tom, 199-bet)

\* \* \*

Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yemoqda.

Bu o'rinda asosiy muammo, mening nazarimda, quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda.

Va, nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik, ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir korxonadagi, shahar va tumanlardagi, ayniqsa, qishloq joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq.

(1-tom, 239-bet)

\* \* \*

Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, avvalo, biz, rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi.

(1-tom, 293-bet)

\* \* \*

Eng muhimi, xalqimiz o'z hayotidan va davlatdan rozi bo'lib yashashini ta'minlash bugun barchamizning bosh vazifamizdir.

(1-tom, 313-bet)

\* \* \*

Xalqimizda «Ikki kemaning boshini tutgan g'arq bo'ladi» degan maqol bor. Qaysi rahbar, qaysi imomxatib u tomonga ham, bu tomonga ham yoqaman deb

ish ko'rmoqchi bo'lsa, qattiq adashadi. Bizga bunday ikkiyuzlamachi, munofiq odamlar mutlaqo kerak emas.

(1-tom, 477-bet)

\* \* \*

Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo'lga qo'yish eng maqbul yo'ldir. Bu – jahon tajribasida sinovdan o'tgan yo'l. Davlat qachon o'z vazifasini muvaffaqiyatli ado etadi? Qachonki davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati o'rnatilgan bo'lsa.

(1-tom, 489-bet)

\* \* \*

Shu munosabat bilan barcha katta-kichik rahbarlar qulog'iga qo'rg'oshindek quyib olsin: biz endi sizlarning faoliyatingizga paxta yoki g'allaga qarab emas, eng avvalo, sizlarning yoshlarga, yoshlarga oid davlat siyosatiga bo'lgan munosabatingizga qarab baho bera-miz.

(1-tom, 514-bet)

\* \* \*

Ma'lumki, har qanday islohot, xususan, millionlab yoshlarning hayoti va kelajagiga bevosita daxldor bo'lgan o'zgarishlar har tomonlama chuqur o'ylab ish tutishni, yetti o'lchab, bir kesishni talab etadi.

(1-tom, 516-bet)

\* \* \*

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish nainki Prezident devoni, balki barcha bo'g'indagi davlat organlari rahbarlarining doimiy ishiga aylanishi zarur. Bundan buyon bu sohada aniq tizim asosida ish olib boramiz.

(1-tom, 518-bet)

\* \* \*

Shuni qayd etish kerakki, siyosiy partiyalarda aksariyat hollarda o'tkir va og'ir muammolarning yechimi ustida ishlash o'rniغا, «Ozgina vaqt o'tsa, bu masala o'zi hal bo'ladi», «Bu – hukumatning ishi» degan qarashlar, «Sen menga tegma, men senga tegmayman» degan eskicha kayfiyat ham yo'q emas.

(1-tom, 555-bet)

\* \* \*

Partiyalar fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning g'oyaviy, mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishi shart. Agar partiyalar bunga erisholmasa, bu bo'shliqni g'araz niyatli kuchlar to'ldirishga harakat qilishi shubhasiz. Ayrim hollarda to'ldiryapti ham. Buni yashirishning hojati yo'q.

(1-tom, 559-bet)

\* \* \*

Islohotlar albatta eskicha yashash, eskicha ishlashga o'rganib qolgan ayrim mansabdlorlarga yoqmaydi. Buniyam ochiq aytishimiz kerak. Chunki o'zgarish, yangilanish ularning tinchi va oromini, huzur-halovatini buzadi. Lekin hayot davom etar ekan, hayot talabi bo'lgan islohotlar ham izchil davom etishi muqarrar. Bu haqiqatni va talabni barcha darajadagi rahbarlar chuqur anglab olishlari zarur.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan  
tantanali marosimda qilangan ma'ruzadan.)*

*2018-yil 10-dekabr)*

\* \* \*

Davlat organlarida ertaga, istiqbolda qanday vazifalar dolzarb bo'lishi, sodda qilib aytganda, besh, o'n, yigirma yildan keyin qanday muammolar oldimizda ko'ndalang bo'lishini prognoz qiladigan tizim hali shakl-langani yo'q.

Prezident Administratsiyasiga tarmoqlar faoliyatini samarali boshqarishda strategik tahlil, rejalashtirish va prognoz tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli davlat siyosati Konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Barchamizga ayonki, islohot, bu – yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi.

Bu maqsadga erishish uchun, birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barcha yetakchilar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida tashkil etishlarini bugun hayotning o'zi talab etmoqda.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Davlatning boshqaruv sohasidagi ba'zi funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida, jumladan, «autsorsing» shaklida xususiy sektorga topshirish lozim.

Uchinchidan, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalg etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur.

Bugun oddiy bir haqiqatni tan olishimiz kerak. Davlat idoralarida malakali va yetuk kadrlar yetishmaydi.

Hanuzgacha davlat xizmatchilarining maqomi belgilanmagan, davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Bu boradagi muammolarni hal etish uchun, avvalo, davlat xizmatchilari faoliyatini xolisona baholash bo'yicha samarali tizim joriy etish zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Keyingi davrga belgilangan vazifalarni amalgamoshirish uchta eng muhim talabga hal etuvchi darajada bog'liqdir.

Birinchisi – davlat rahbari – Prezidentdan boshlab barcha bo'g'indagi rahbarlarning yakuniy natijalar uchun shaxsiy javobgarligi.

Ikkinchisi – hamma sohada aniq tartib va qattiq intizomni ta'minlashimiz darkor. Yana bir bor ta'kidlayman, ishni birqalikda bajaramiz, natija uchun esa har birimiz shaxsan javob beramiz.

Uchinchi talab – saflarimiz va kadrlarimizning sofligini ta'minlash, ishdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarning ildizini quritish.

(1-tom, 290-bet)

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida alohida Ekspert kengashi tashkil etilib, unga xorijiy mamlakatlarning nufuzli olimlari va amaliyotchilari jalg qilinishi lozim.

Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayapti.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bugun milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichiga qadam qo'yari ekanmiz, biz yutuqlarimiz bilan birga xato va kamchiliklarimizni ham chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etish haqida o'ylashimiz tabiiydir. Chunki bu ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim chetdan kelib muammolarimizni hal qilib bermaydi.

\* \* \*

... yurtimizda xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi va samarali tizimi joriy qilinganini aytish o'rini deb o'ylayman. Bugungi kunda xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qila boshlagani uchun ham odamlarning fikri, dunyoqarashi o'zgarmoqda, el-yurtimiz o'z kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga ishonch bilan qaramoqda.

(*O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda  
so'zlangan nutqdan. 2018-yil 31-avgust*)

\* \* \*

Hozirgi vaqtida davlat hokimiyat idoralarida ko'p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo'lga qo'yilmaganligi sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalal bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o'tiribdi. Boshqa bir idorani qarasangiz ish ko'p, vazifa ko'p, ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston  
davlatini birgalikda barpo etamiz.  
– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 25–26-bet*)

\* \* \*

Davlat, hukumat institutini isloh etish, davlat xizmatlarini moddiy va ijtimoiy ta'minoti, ularning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish, bu soha ga yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar kadrlarni jalb etish bo'yicha samarali tizim yaratiladi.

(*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan  
tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.  
2016-yil 7-dekabr*)

\* \* \*

Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.*

– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 19-bet)

\* \* \*

Rahbarlarning faoliyati ijobjiy bo'lsa, xalq ulardan rozi bo'lsa, rahmat deymiz. Aksi bo'lsa, biz bunday rahbarlar bilan xayrлаshamiz.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.*

– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 19-bet)

\* \* \*

Biz yurtimizda yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo'lida qanday ish qilsak ularning barchasini xalqimiz bilan bamaslahat qilamiz.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.*

– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 17-bet)

\* \* \*

Ijro hokimiysi tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usollarini keng qo'llash zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Xalq bilan uzlusiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish, barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, yurtimizni ravnaq toptirish bo'yicha yangi-yangi yutuqlar, bilim va tajribalar davri bo'lib qolmoqda.

Biz yangi yildan boshlab siyosiy hayotimizda yana bir amaliyotni joriy etamiz. Kirib kelayotgan yilning bosh hujjati bo'lgan Murojaatnomada bayon qilingan har bir ustuvor yo'naliish bo'yicha Bosh vazir va hukumat a'zolari amalga oshirilgan ishlar haqida Senat va Qonunchilik palatasi oldida har chorakda hisobot berib boradi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi.

(Andijonda o'tkazilgan majlisda so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

Bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda. O'ylaymanki, buning uchun «Davlat xizmatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish vaqtি keldi.

(2-tom, 88-bet)

\* \* \*

Biz boshqaruv sohasida, birinchi navbatda, ijro hokimiyyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz zarur.

(2-tom, 89-bet)

\* \* \*

Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmatlari tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda.

(2- tom, 90-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovations asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayratshijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz.

(2-tom, 491-bet)

\* \* \*

«Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan prinsip barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerak. Albatta, rahbarlarning ishga munosabatini o'zgartirishga harakat qilyapmiz, lekin ularning qotib qolgan ong-u tafakkurini o'zgartirish qiyin bo'lmoqda.

Muntazam ravishda joylarga chiqib, odamlarning ehtiyojlari, muammolari bilan yashash va ularning yechimini topish vazifasi mansabdorlar tomonidan xo'jako'rsinga emas, balki amalda ta'minlanishi zarur.

(2-tom, 31-bet)

## TA'LIM VA TARBIYA

Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtida, jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.

(1-tom, 28-bet)

\* \* \*

O'zbekiston – ulkan tabiiy zaxiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Ammo Yaratganning o'zi ato etgan yana bir beba ho boyligimiz borki, u ham bo'lsa, xalqimizning beqiyos intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Ilm-fan namoyandalarining, ta'bir joiz bo'lsa, «igna bilan quduq qaziydigan» zahmatkash olimlari-mizning mashaqqatli ilmiy izlanishlari mamlakatimiz, uning bugungi va kelgusi ravnaqi uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu fidoyi insonlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish maqsadida biz bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

(1-tom, 85-bet)

\* \* \*

Biz ta'lif va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamон talablari asosida tako-

millashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

(1-tom, 124-bet)

\* \* \*

Barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq, bizning eng katta boyligimiz, bu - xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz - ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda, qadrli hamda hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

(1-tom, 144-bet)

\* \* \*

Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz.

Bu borada «Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona» degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Bunday g'oyat muhim vazifani amalga oshirishda biz, avvalo, ko'pni ko'rghan kayvoni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtarram faxriyalarimizga, Siz, aziz opa-singillarimizning aql-zakovatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz.

(1-tom, 349-bet)

\* \* \*

Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gapla-

---

shishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men, davlat rahbari sifatida, doimo tayyorman.

(1-tom, 481-bet)

\* \* \*

Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi.

(1-tom, 28-bet)

\* \* \*

Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburmiz. Shuning uchun ham Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy o'quv yurtlari, mamlakatimizdagi ilmiy markazlar «El-yurt umidi» jamg'armasi bilan yaqin hamkorlikda samarali ish olib borishi kerak.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.  
2018-yil 10-dekabr)*

\* \* \*

Biz «Tarbiya go'daklikdan boshlanadi» degan hikmatli so'zga amal qilib, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlarni uning eng quyi bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimidan boshladik.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.  
2018-yil 10-dekabr)*

\* \* \*

Qiyoslash uchun faqat bitta misol keltirmoqchiman. So'nggi ikki yilda yurtimizda bolalar bog'chalari soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga yetdi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.)*

2018-yil 10-dekabr)

\* \* \*

Davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilayotgan xususiy mакtabgacha ta'lif maskanlari so'nggi bir yilda ikki barobar ko'paydi va 568 tani tashkil etmoqda. Yana mingta shunday bog'cha ochish bo'yicha amaliy ishlar boshlangan.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.)*

2018-yil 10-dekabr)

\* \* \*

So'nggi ikki yilda mamlakatimizda 5 ta yangi oliy ta'lif muassasasi hamda 12 ta nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtining filiallari tashkil etildi.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.)*

2018-yil 10-dekabr)

\* \* \*

Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab beruniylar, ibn sinolar, ulug'-beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan.)*

2018-yil 10-dekabr)

\* \* \*

Xalqimizda «Ta'lif va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir gap bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Shu sababli, ta'lif sohasidagi davlat siyosati uzzluksiz ta'lif tizimi prinsipiiga asoslanishi, ya'ni ta'lif bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lifning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Binda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Shu yo'ldagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasini bugungi 34 foizdan 2019-yilda 44 foizga yetkazamiz.

Umumiy o'rta ta'lif tizimini bugungi kun talablarasi asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlardan keng foydalanish kerak.

Oliy ta'lif tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi.

Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamin kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'y-lab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz.*  
– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 18-bet)

\* \* \*

Pedagoglarimiz yaxshi biladi: tarbiya, odob-axloq sohasida «amaliy namuna» hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga, avvalo, o'zimiz hamma sohada – Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasb-hunarga mehr qo'yishda, ota-onha, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak.

(*Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvda so'zlangan nutqdan*)

\* \* \*

Professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz.*  
– Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 14-bet)

\* \* \*

Oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## DINIY MA'RIFAT

Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom — haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi.

Biz islam dinidan zo'ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan kimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz.

(1-tom, 30-bet)

\* \* \*

Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'i nazar, ma'nnaviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

(1-tom, 31-bet)

\* \* \*

Yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglik muhiti tufayli mamlakatimizda 2 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni rivojlantirish, fuqarolar qaysi din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, ularning teng huquqliliginini ta'minlash bundan buyon ham eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

---

Biz muqaddas dinimizni noto'g'ri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, o'rta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzg'unchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qat'iy kurash olib boramiz.

(1-tom, 47-bet)

\* \* \*

Imom-xatiblar keng jamoatchilik orasida mammalakatimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, bunday barqaror va osoyishta muhit osmondan tushmayotganini targ'ib etish, ota-bobolarimiz ming yillardan buyon pok saqlab kelayotgan islom dini har qanday zo'ravonlikka, buzzg'unchilikka, begunoh insonlarning qonini to'kishga mutlaqo qarshi ekanini oyat va hadislar asosida, jonli misollar yordamida ta'sirchan yetkazib berishlari zarur.

(1-tom, 485-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom ham-jamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiylashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda.

(2-tom, 457-bet)

\* \* \*

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam manbai sifatida behad qadrlaymiz. Biz buyuk dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezhulik va tinchlikka, hayotda asl insoniy fazilatlarni qaror toptirishga da'vat etadi.

Farzandlarimizning turli radikal va zararli g'oyalalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik – aso-

---

siy vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bizni o'zaro mushtarak tarixiy-madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lab keladigan muslimon dunyosi mamlakatlari bilan hamkorlikni bundan buyon ham mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Ayni shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, biz xorijiy sheriklarimiz bilan o'zaro manfaatli aloqalarni barcha sohalarda amaliy mazmun bilan yanada boyitish tarafдоримиз.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Agar mahallangizda bola zararli diniy oqimga kiring qolgan bo'lsa, uni noto'g'ri yo'ldan qaytarishga harakat qiling. Avvalo, ular bilan gaplashib, bu otabobolarning yo'li emas, bu yo'ldan qayt, haqiqat mana bu yoqda, tinchlik va ezgulik yo'lidan borib, hech kim kam bo'lмаган deb ularni sog'lom e'tiqodga ishontirish kerak. Bilim bilan, aql va ma'rifikat, namunali yoshlar bilan ishontirish kerak. Tarixdan, bugungi hayotimizdan olgan hayotiy, ta'sirchan misollar bilan inontirish kerak.

*«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik».*

*«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun.*

\* \* \*

Agar biz shu yo'nalishdagi ishlarni avvalgidek davom ettiradigan bo'lsak, ya'ni umumiyl profilaktika ishlarini yoshlar radikal diniy oqim a'zosiga aylanganidan so'ng o'tkazadigan bo'lsak, bunday xavf-xatarga qarshi hech qachon samarali kurasha olmaymiz.

Qisqacha aytganda, uzoqni ko'zlab, kerak bo'lsa, hayotda bir qadam oldinda yurib, bizni dog'da qoldirmoqchi bo'lганлarning hiyla-nayranglarini avvaldan

---

bilib, birinchi zARBANI ular emas, biz berishimiz zarur. Shunda davlatning davlat, jamiyatning jamiyat ekani bor kuchi va qudrati bilan namoyon bo'ladı.

«*Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik*».

«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun.

\* \* \*

Biz «jaholat» deganda odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o'z vaqtida kurash olib borilmasa, o'ta og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo'yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo'l-oyog'imizda bamisolikishan bo'lib turibdi. Bu kishandan xoli bo'lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so'z bo'lishi mumkin emas.

«*Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik*»,

«Xalq so'zi», 2017-yil 16-iyun.

## SOG'LIQNI SAQLASH

Biz uchun beba boylig bo'lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo'g'inidagi bo'linmalari va qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, tez tibbiy yordam va yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatadigan, ixtisoslashgan maxsus markazlarni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hukumatning e'tibor markazida bo'lishi darkor.

(1-tom, 149-bet)

\* \* \*

Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Xalqimiz genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsioni bo'yicha amaldagi me'yorlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Konstitutsiyamizda har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanı mustahkamlab qo'yilgan. Bu muhim hayotiy qoidaning ijrosini ta'minlash – xalqimiz genofondini asrash, yoki oddiy qilib aytganda, davlat va jamiyat taraqqiyotining kafolatidir.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Aholiga kafolatlangan tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida kelgusida majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etishimiz kerak.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Xalq ta'lifi sohasidagi ta'lim standartlari va o'qitish uslublarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida, o'quvchining individual qobiliyatini ro'yobga chiqarish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish lozim.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

Xalqimiz genofondini mustahkamlash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko'lamin kengaytirish lozim.

Bizning bosh maqsadimiz – nafaqat kasallikni davolash, balki uning oldini olishdan iborat.

Tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini kengaytirish lozim. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi belgilanib, pulli va bepul davolanish o'rtasida aniq chegara o'rnatilishi kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISH

Aholimiz, eng avvalo, yoshlar o'rtasida kitobxonlik saviyasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila» kabi yo'naliishlarda tanlovlardan o'tkazish, yakuniy bosqich g'oliblarini taqdirlash uchun qimmatbaho sovg'alar, jumladan, yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobilarni mukofot tariqasida berish, o'yaymanki, bu juda katta rag'bat bo'ladi.

(1-tom, 530-bet)

\* \* \*

Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlарimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.

(1-tom, 286-bet)

\* \* \*

Ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi.

(2-tom, 180-bet)

\* \* \*

Biz bugun kitobxonlik madaniyatini oshirish, ilmiy, badiiy, siyosiy adabiyotlarni ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor beryapmiz. Ammo bu ishlarni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirishimiz, boshlagan oljanob harakatimizni obro'sizlantirishga yo'l qo'ymasligimiz shart.

(2-tom, 187-bet)

\* \* \*

Ayni paytda shu maqsadni o'zida ifoda etgan «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» qaror loyihasi tayyorlanayotganini sizlarga ma'lum qilmoq-chiman.

(2-tom, 220-bet)

\* \* \*

Biz jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz.

(2-tom, 220-bet)

\* \* \*

Farzandlarimizni ota-bobolarimizning shonli an'analari ruhidha, bugungi dunyoning shaxs kamolotiga xizmat qiladigan yutuqlari asosida tarbiyalashda kitobning rolini boshqa narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik savyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sizlarga ma'lum. Lekin, ko'plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib, ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgani – bu ham bor gap. Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi

bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz.

«Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamijihat bo'lib, qat'iyuat bilan harakat qilaylik».

«Xalq so‘zi», 2017-yil 16-iyun

## MILLATLAR O'RTASIDAGI TOTUVLIK

Bizning eng asosiy yutug‘imiz – ko‘p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotganidir.

(1-tom, 46-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayot kechirayotgani – istiqlol davrida erishgan eng muhim yutuqlarimizdan biridir desam, o‘ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo‘shilasiz. Millatlararo totuvlikni ta’minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o‘rni beqiyos.

Aynan shu nuqtayi nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

(1-tom, 47-bet)

\* \* \*

Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstre-

---

mistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

(1-tom, 138-bet)

\* \* \*

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

(1-tom, 295-bet)

\* \* \*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlар rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'-rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi.

(1-tom, 295-bet)

\* \* \*

Barchamizga yaxshi ayon, bugungi shiddatli zamон, dunyodagi ayovsiz raqobat muhiti bizdan juda katta mas'uliyat va safarbarlik bilan ishlashni, hamma sohada yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Mana shunday keskin sharoitda biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlar o'rtasida hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrashimiz zarur. Ayniqsa, farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilishga eng dolzarb vazifa deb qarashimiz kerak.

(1-tom, 349-bet)

\* \* \*

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan.

(1-tom, 465-bet)

\* \* \*

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek asrash, yosh avlod o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining mustahkam o'rniiga ega bo'lishi lozim.

(1-tom, 534-bet)

\* \* \*

Haqiqatan ham, biz, ota-onalar, ustoz va murabiylar sizlarni, butun O'zbekiston yoshlarini Vatanimiz, jamiyatimizning hal qiluvchi kuchi deb bilamiz va sizlar hamisha xalqimizning mana shunday yuksak ishonchiga munosib bo'lasiz deb ishonamiz.

(1-tom, 537-bet)

\* \* \*

Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik va totuvlik muhiti, o'zaro hurmat va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim.

(2-tom, 37-bet)

\* \* \*

Butun dunyoda turli nizo va qarama-qarshiliklar avj olib, tinch-osoyishta hayot va xavfsizlikka nisbatan xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi kunda ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali jamiyatimizni yanada birlashtirish, yoshlarimizda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, bilim olishga, ma'naviy kamolotga intilish tuyg'usini yuksaltirish, oila institutini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

(2-tom, 452-bet)

\* \* \*

Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'-rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi.

Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtaida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.

Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## MUDOFAA

Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz.

(1-tom, 47-bet)

\* \* \*

Xalqimizni ishontirib aytaman: mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga raxna solishga urinadigan ichki va tashqi kuchlarning har qanday harakatlariga qarshi biz keskin zarba berishga qodirmiz. Bunga hech kimda hech qanday shubha bo'lmasligi kerak.

(1-tom, 48-bet)

\* \* \*

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorlik bilan e'tirof etmoqda.

Hozirgi kunda onalar o'z farzandlarini armiyaga ko'zda yosh, yurakda xavotir bilan emas, balki mening

o'g'lim haqiqiy Vatan himoyachisi bo'ladi deb, yuksak ishonch va faxr tuyg'usi bilan kuzatmoqda.

Onalar ko'nglidagi rozilik, bu – butun xalqimiz qalbidagi rozilik ifodasi desam ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

(1-tom, 221-bet)

\* \* \*

Hozirgi vaqtida jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarib, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday o'ta mas'uliyatli vaziyat va hayotning o'zi erishgan barcha yutuqlarimizni, shu bilan birga, yo'l qo'ygan kamchiliklarimizni chuqur va tanqidiy tahlil qilishni barchamizdan talab etmoqda. Shu asosda milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida puxta o'yangan va izchil harakatlarni davom ettirishimiz darkor.

(1-tom, 223-bet)

\* \* \*

Qo'shirlarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qayta ta'minlash – bugungi va istiqboldagi eng muhim vazifamizdir.

(1-tom, 227-bet)

\* \* \*

Harbiy xizmatchilar, jamoatchiligidan va chet ellik hamkorlarimiz o'rtasida mudofaa siyosatimizning asosiy prinsiplarini tushuntirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni tashkil etish lozim. Bu borada mazkur siyosatning ochiqligi hamda xavfsizlik va mudofaa sohasida boshqa xorijiy mamlakatlar bilan amaliy munosabatlarni rivojlantirish biz uchun ustuvor ahamiyatga ega ekaniga e'tibor qaratish darkor.

(2-tom, 151-bet)

\* \* \*

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan mudofaa sanoati innovatsion va yuqori texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

(2-tom, 158-bet)

\* \* \*

Barchamiz bir fikrni yaxshi anglab olishimiz kerak: el-yurtimizning tinchligini ta'minlash maqsadida bugun mudofaa sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qanchalik samara berishi armiya va xalqning birdamligiga bog'liq.

(2-tom, 160-bet)

\* \* \*

Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, quroq-yarog'lar bilan ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

(2-tom, 162-bet)

\* \* \*

Ayni paytda, butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni yanada isloh qilish, uning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo'yicha kel-

---

gusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur.

(2-tom, 170-bet)

\* \* \*

Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada ku-chaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Hech shubhasiz, Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning bugungi tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida halok bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko'rsatish biz uchun ham farz, ham qarzdir.

(2-tom, 171-bet)

\* \* \*

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini oshirish, milliy mudofaa sanoati kompleksini shakllantirish, har qanday xavf-xatarga qarshi doimo shay turishimiz lozim.

Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshlangan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Qo'shnlarning jangovar va tezkor tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish, o'quv mashqlari faolligini, ularning samaradorligini oshirish – muhim vazifadir.

...

(2-tom, 173-bet)

\* \* \*

Qurolli Kuchlarimizda jangovar ruhni yuksaltish, askar va ofitserlarimizni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz kerak.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Bugungi tahlikali zamonda bebahoh boyligimiz bo'l-gan tinch-osoyishta, erkin va obod hayotni har tomonlama asrab-avaylash va mustahkamlash eng asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratamiz.

\* \* \*

Yoshlarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega.

O'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda.

(2-tom, 162-bet)

\* \* \*

Biz Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasini Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi hududida joylashtirish haqida qaror qabul qildik. Nega deganda, mazkur qo'mitaning boshqaruv apparati bevosita ishlab chiqarish muhitida doimiy faoliyat olib borishi lozim.

(2-tom, 159-bet)

## TARIXIY MEROS

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

(1-tom, 29-bet)

\* \* \*

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Shu maqsadda, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida «O'zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziylolarimiz bilan birlgilikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak.

Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo'lgan «Shashmaqom», ya'ni olti maqomni, ta'bir joiz bo'lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar

davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to'ldirib, boyitib kelmoqda.

(Xalqaro maqom san'ati anjumanining  
ochilish marosimida so'zlangan nutqdan.  
2018-yil 6-sentabr)

\* \* \*

Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliv o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlari chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

## VATANPARVARLIK

Betakror yurtimizga, oljanob xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – barchamizning eng sharaflı va muqaddas burchimizdir.

(1-tom, 94-bet)

\* \* \*

... oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur.

Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiyligi va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiytadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir.

(1-tom, 298-bet)

\* \* \*

Xalqimizning roziligi – bizning, birinchi navbatda, Prezident sifatida mening, barcha bo‘g‘indagi rahbar va mutasaddilar, deputat va senatorlar, butun davlat idoralarining faoliyatiga berilgan eng oliy va eng adolatli bahodir.

Jonajon O‘zbekistonimizda, barcha shahar va qishloqlarimizda sizlar kabi fidoyi odamlar safi yanada kengayib, olijanob mehnatingiz samarasidan, avvalo, o‘zingiz, oilangiz, el-yurtimiz bahramand bo‘lsin!

*(O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda  
so‘zlangan nutqdan. 2018-yil 31-avgust)*

\* \* \*

Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

*(O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari  
tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan  
himoyachilariga yo‘llangan bayram tabrigidan.  
2017-yil 14-yanvar)*

\* \* \*

Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug‘ maqsadlar yo‘lida barchamiz belimizni mahkam bog‘lab ishlashimiz, bor aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak.

O‘zimiz o‘zimizga xiyonat qilmasak, o‘zimiz o‘zimizni aldamasak, halol-pok bo‘lib mehnat qilsak, men aminman, ko‘zlagan barcha marralarimizga albatta

yetamiz. Bu borada men, avvalo, ko‘p sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tgan olajanob xalqimizning mustahkam irodasi va bunyodkorlik salohiyatiga ishonaman.

(2-tom, 146-bet)

\* \* \*

Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida, mohiyat e'tiboriga ko'ra, noyob tizim yaratilib, uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olindi.

(2-tom, 421-bet)

## DO'STLIK

Biz hamkorlikni, do'stlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz.

(*Buyuk kelajagimiz mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 301-bet*)

\* \* \*

Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

(1-tom, 293-bet)

\* \* \*

Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa, taraqqiyotning kafolatidir!

(*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan*)

\* \* \*

Biz o'z tashqi siyosatimizda Markaziy Osiyoda xavf-sizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan aniq va ravshan strategiyaga tayanamiz.

Bu borada O'zbekiston mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston,

---

Eron bilan amaliy va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni muhim vazifa deb biladi.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Samarali mintaqaviy hamkorlikning asosiy shartlaridan biri – madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirishdan iborat.

Mintaqada do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro anglashuv va barqarorlik muhitini mustahkamlashda bu sohaning o'rni va roli beqiyosdir.

*(Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining  
maslahat uchrashuvida so'zlangan nutqdan.  
2018-yil 16-mart)*

\* \* \*

Bugun Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnilik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlik solnomasida yangi sahifa ochildi.

*(Markaziyo Osiyo davlatlari rahbarlarining  
maslahat uchrashuvida so'zlangan nutqdan.  
2018-yil 16-mart)*

\* \* \*

Biz tashqi siyosatimizda uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik aloqalarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, barcha sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantiramiz.

*(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul  
qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimda qilingan ma'ruzadan)*

\* \* \*

O'zbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish liniyasi, Termiz shahrida afg'on fuqarolarini "o'qitish uchun ochilgan Ta'lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo'lgan «Termiz-Kargo» logistika märkazi, Mozori Sharif – Hirot va Mozori

Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'l liniyasi loyihalari ishlab chiqilayotgani shundan dalolat beradi.

O'zbekiston Afg'on muammosini yechish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg'oniston tonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Xalqimizga xos kechirimli, rahm-shafqatli bo'lish, bag'rikenglik va oljanoblik fazilatlari asosida jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhit mustahkamlanib bormoqda.

(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda  
so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

Bugun bir fikrni to'la ishonch bilan aytish mumkin: butun jamiyatimizni qamrab olayotgan ana shunday ezu ishlarimiz tufayli hayotimizda fayz-u baraka, milatlararo do'stlik va mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib bormoqda.

(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda  
so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

O'zbekiston dunyodagi barcha davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

(1-tom, 384-bet)

## QADRIYATLAR

Navro'z – umumbashariy ahamiyatga ega bayram. Uning mohiyatida mujassam bo'lgan gumanistik g'oyalilar, millati, tili va dinidan qat'i nazar, yer yuzidagi barcha pok niyatli insonlar uchun birdek tushunarli va qadrlidir.

(1-tom, 374-bet)

\* \* \*

Biz «O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da'vatning mohiyatini chuqur anglagan holda, tinchlik uchun har birimiz mas'ul ekanimizni unutmasdan, doimo hushyor va ogoh bo'lib yashashimiz kerak.

(1-tom, 401-bet)

\* \* \*

Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas'ulmiz.

(2-tom, 37-bet)

\* \* \*

Hech shubhasiz, hayotda mana shunday quvonchli voqealar yuz berganda insonning qaddi ham, qadri ham ko'tariladi. Bunday damlardaadolat haqida gapirmasangiz ham odamlar haqiqat vaadolat borligiga ishonadi. Xalq bilan bevosita muloqot olib borish, uning dard-u tashvishlari bilan yashash, el-yur-

timizni rozi qilish, bu vaqtinchalik kampaniya emas. Bu xalqimizning farovon hayotini, yurtimiz ravnaqini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyadir. Amir Temur bobomizning «Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!» degan chuqur ma'noli so'zlar har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur.

(*Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 10-bet)

\* \* \*

Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-tilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan Siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflı ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

(2-tom, 176-bet)

\* \* \*

---

## EKOLOGIYA

Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.

(1-tom, 570-bet)

\* \* \*

Biz O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi janob Antoniu Guterrish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlaridan, hamkor davlatlardan minnatdormiz.

Biz Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o'rmonlar barpo etishga alohida e'tibor bermoq-damiz.

Agar mustaqillik yillarda O'zbekiston bo'yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o'rmonzor yaratilgan bo'lsa, shundan 400 ming gektardan ortig'i aynan Orol-bo'yi hududida barpo etilgan.

(2018-yilgi «Murojaatnoma»dan)

\* \* \*

Biz umumiyl manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fofia oqibatlarini bartaraf etish va Orol bo'yidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog'liq mu-

---

ammolariga yechim topish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarimizni birlashtirishimiz lozim.

(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimda so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

Xalqlarimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo'lish va umumiyl suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasidagi ko'p asrlik an'analariga suyangan holda biz haqiqatdan ham ulkan natijalarga erishamiz deb ishonaman.

(O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
27 yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimda so'zlangan nutqdan)

\* \* \*

Umuman olganda, ota-bobolarimiz ardoqlab, parvarishlab kelgan, yaxshi va yomon kunlarida do'st bilgan qorabayir otlarni millatimizning g'ururi desak arziydi. Farzandlarimiz qalbida mardlik, jasurlik, ona yurtga sadoqat fazilatlarini shakllantirishda undan to'g'ri foydalansak, o'ylaymanki, nur ustiga nur bo'ladi.

(2-tom, 46-bet)

---

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Huquq, inson huquqlari va qonunchilik.....	6
Tadbirkorlik va ishbilarmonlik .....	22
Moliya va iqtisod .....	27
Ijtimoiy himoya .....	35
Madaniyat, san'at, adabiyot, ma'naviyat va ommaviy axborot vositalari .....	43
Investitsiya .....	52
Innovatsiya .....	55
Klasterlar .....	57
Tashqi siyosat.....	66
Sport.....	71
Fermerlik, qishloq xo'jaligi va agrosanoat .....	73
Sanoat va transport .....	77
Axborot kommunikatsiyalari va Internet .....	80
Yoshlar tarbiyasi .....	83
Nuroniylar .....	92
Xotin-qizlar .....	95
Mahalla fuqarolari yig'inlari .....	100
Kadrlar va rahbarlar .....	102
Ta'lim va tarbiya .....	117
Diniy ma'rifat.....	123
Sog'liqni saqlash.....	127
Kitobxonlik madaniyatini oshirish .....	130
Millatlar o'rtasidagi totuvlik .....	133
Mudofaa .....	137
Tarixiy meros .....	142
Vatanparvarlik .....	144
Do'stlik .....	147
Qadriyatlar .....	150
Ekologiya .....	152

# MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari  
va ma'ruzalaridan olingan fikrlar

*Nashrga tayyorlovchilar:* O. Salimov,  
Q. Quronboyev, M. Bekmurodov, L. Tangriyev

Muharrir *Saidmurod Xolbekov*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*  
Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*  
Musahhib *Nigora G'aniyeva*  
Sahifalovchi *Dilmurod Jalilov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2019-yil 20-martda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ . Journal Accent garniturası.  
Offset bosma. 9,75 shartli bosma taboq.  
9,50 nashr bosma tabog'i. Adadi 5000 nusxa.  
16-raqamli buyurtma. Bahosi shartnomaga asosida.

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

"Avto-Nashr" XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

**Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.** Nashrga tayyorlovchilar: O. Salimov, Q. Quronboyev, M. Bekmurodov, L. Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019. – 156 b.

ISBN 978-9943-5530-5-7

UO'K 323(575.1)  
KBK 66.3  
M 50